

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**S.B.BAQOYEV, A.N.ZULFIQOROV,  
A.R.RAYIMOV, R.R.RAXMONOV**

# **ZOOLOGIYA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI**

**(O`quv-uslubiy qo`llanma)**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro, 2017-yil**

**28.6в6**

**3-79**

Зоология фанидан тест топшириқлари [Матн] / С. Бақоев [ва бошқ.]. - Бухоро : Durdona, 2017. - 136 б.

**КБК 28.6в6**

О`quv – uslubiy qo`llanmada uzviylashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi (biologiya, zoologiya) talablariga mos keladigan zoologiya fanidan (7 sinf) 1343 ta test topshiriqlari va ularning to`g`ri javoblari keltirilgan .

О`quv – uslubiy qo`llanma maktab , akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida ta`lim olayotgan o`quvchilar va biologiya fani o`qituvchilari uchun mo`ljallangan bo`lib, u o`quvchilarni har bir mavzudan olgan bilimlarini chuqurlashtirishga va bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

**Mas`ul muharrir:**

b.f.n. dotsent. B.B.Toxirov

**Taqrizchilar:**

N.E.Rashidov - BuxDU biologiya kafedrası dotsenti

O.I. Jabborova – Buxoro Davlat Tibbiyot instituti Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrası dotsenti

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakultetining 2017 yil 27-fevraldagi 6-ilmiy kengashida ko`rib chiqildi va nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-4900-8-6

## MUNDARIJA

So`z boshi	4
I- BOB. Hayvonlar to`g`risida umumiy ma`lumot	5-8
II-BOB. Bir hujayralilar, ya`ni sodda hayvonlar	8-17
III-BOB. Ko`p hujayrali hayvonlar : Bo`shliqchlilar tipi	17-24
IV- BOB. 4.1.Yassi chuvalchanglar tipi	24-32
4.2. To`garak chuvalchanglar tipi	33-37
V- BOB. Halqali chuvalchanglar tipi	38-41
VI-BOB. Mollyuskalar tipi	41-47
VII-BOB. Bo`g`imoyoqlilar tipi	47
7.1. Qisqichbaqasimonlar sinfi	47-51
7.2. O`rgimchaksimonlar sinfi	51-56
7.3. Hasharotlar sinfi	56-72
VIII- BOB. Xordalilar tipi	72
8.1. Lansetnik sinfi	72-76
8.2. Baliqlar	76-88
8.3. Suvda ham quruqlikda yashovchilar sinfi	88-94
8.4. Sudralib yuruvchilar sinfi	94-100
8.5. Qushlar sinfi	101-115
8.6. Sutmizuvchilar sinfi	115-128
IX- BOB. Yer yuzida hayvonot dunyosining evolutsiyasi	128-130
Testlarni yechish va javoblarni tekshirish uchun tavsiya qilinadigan adabiyotlar	131
Test topshiriqlarining to`g`ri javoblari	

## SO`Z BOSHI

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida “Zoologiya” fanining o`qitilishi, uning o`quvchilar tomonidan o`rganilishi, o`zlashtirilishining samarali bo`lishini ta`minlashda o`quv adabiyotlarining (darslik, qo`llanma, yordamchi o`quv-uslubiy ishlar) O`zbekiston Respublikasida amal qilayotgan uzviylashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi (Toshkent, 2010) talablari asosida ishlab chiqilishi, yozilishi muhim ahamiyatga ega. Ta`kidlash lozimki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta`lim tizimida bu sohada ancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ammo davr talabi o`quvchilarni mustaqil bilim olishi, fikr yuritishi imkoniyatlarini yana ham kengaytirish, chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

Shu holatni inobatga olgan holda “Zoologiya fanidan test topshiriqlari” o`quv-uslubiy qo`llanmasi tayyorlandi. Bu qo`llanmada biologiya fanining zoologiya qismi uchun DTSda keltirilgan uzviylikka rioya qilib fan doirasidagi mavzular, bo`limlar oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida joylashtirildi va unga 1350 ta test topshiriqlari kiritildi. Testlarni tuzishda ular turli manba`lardan tanlanganda mahalliy sharoitga mos keladiganlariga ko`proq e`tibor berildi.

O`quv-uslubiy qo`llanmadan biologiya fani o`qituvchilari, repetitorlar, talabalar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quvchilari, hamda biologiyaga (zoologiya) qiziquvchilar, abituriyentlar, mustaqil o`rganuvchilar ham foydalanishi mumkin.

Zoologiya bo`yicha nazariy bilimlarni puxta o`zlashtirishda, uni amaliy faoliyat bilan bog`lashda, u yoki bu mavzu, zoologik obekt tushuncha, hodisa, jarayonlarni tushunish bo`yicha mustaqil fikr yuritish, layoqatini rivojlantirishda fanni o`zlashtirishda tayanch, xususiy kompetensiyalarni shakllantirishda mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma yordam berishi mumkin.

O`qituvchilar fan bo`limlari, mavzulari bo`yicha tarqatma materiallarni qisqa vaqt ichida tayyorlashlari, ulardan dars davomida, darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari o`tkaziladigan tadbirlarda foydalanishlari ham mumkin.

O`quv-uslubiy qo`llanma oxirida unda kiritilgan barcha test topshiriqlarining to`g`ri javoblari ham keltirilgan bo`lib, qo`llanmadan foydalanuvchilar uchun o`ziga xos ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega.

## I BOB. Hayvonlar to`g`risida umumiy ma`lumot.

1. O`rta Osiyo hududida tarqalgan bo`lib boshqa hududlarda deyarli uchramaydigan hayvonlar ?

1) orol bakra balig`i 2) soxtakurak burun baliq 3) yevropa turi 4) turkiston agamasi 5) turkiston gekkoni 6) zubr 7) bizon 8) qum bo`g`ma iloni 9) ingichka barmoqli qo`shoyoq 10) ko`k sug`ur 11) tarpan 12) xongul

A) 1,2,3,4,5,6,7.

B) 1,2,4,5,8,9,10.

C) 2,10,9,11,12.

D) 8,7,6,5,11.

2. Zoologiyaga oid eng qadimgi asarlarni eramizdan 4 asr oldin yozgan olim ?

A) Rim olimi Klavdiy Galen.

B) Rim olimi Lukretsiy Kar.

C) Yunon olimi Arastu.

D) Yunon olimi Empedokl

3. Mikroskopda ko`rinadigan hayvonlarni kashf etgan olim ?

A) K Linney.

B) Jorj Kyuve

C) Anton Levenguk.

D) Karl Ber

4. K. Linney ... ?

A) hayvonlarni o`rganish asosida evolutsion ta`limotni yaratdi.

B) hayvonlarning tur, urug`, turkum va sinflarga ajratib o`rganishini taklif qildi.

C) hayvonlarning embrional rivojlanishini o`rgangan.

D) qazilma holdagi organizmlarni o`rgandi.

5. Ch. Darvin ... ?

A) hayvonlarni o`rganish asosida evolutsion ta`limotni yaratdi.

B) hayvonlarni embrional rivojlanishini o`rgangan.

C) hayvonlar ekologiyasini o`rganishni boshlab bergan.

D) umurtqali hayvonlarni o`rgangan.

6. Umurtqasiz hayvonlarni o`rganishga o`z hissasini qo`shgan O`zbekistonlik olimlar ?

1) I.M.Isayev 2) T.J.Zohidov 3) O.P.Bogdanov 4) A.M.Muhammadiyev

5) V.V.Yaxontov 6) A.T.To`laganov 7) D.N.Kashkarov 8) J.A.Azimov

9) J.H.Hamidov 10) M.A.Sultonov 11) S.N.Alimuhammedov

11) R.S.Muhamedov.

A) 1,4,5,6,7,8,10. B) 2,3,4,5,6,8,11. C) 3,4,6,11,10,9. D) 4,5,6,8,9,10.

7. Qaysi olimlarning tadqiqotlari Markaziy Osiyoda rishta, bezgak paraziti va leyshmaniya kabi parazit hayvonlarning butunlay tugatilishiga asos bo`ldi ?

A) D.N.Kashkarov, T.Z.Zokirov

B) L.M.Isayev, P.F.Borovski

C) T.Z.Zohidov, O.P.Bogdanov

D) S.N. Alimuhammedov, R.O.Olimjonov

8. Yer yuzida hayvonlarning qancha turi mavjud ?

A) 2,5 millionga yaqin.

B) 2 mlnga yaqin tur.

C) 500 mingga yaqin.

D) 1,5 mlnga yaqin tur.

9. Qanday hayvonlar parazit deyiladi ?

A) quruqlik havoda yashaydigan hayvonlar.

- B) yashil o`simliklar bilan oziqlanadigan.  
 C) boshqa hayvonlarni yeydigan hayvonlar.  
 D) odam va boshqa hayvon, o`simlik to`qimalarida yashaydigan organizmlar.
10. Suvda yashaydigan hayvonlarning gavdasi qanday tuzilgan ?  
 A) suyri shaklda, oyoqlari yaxshi taraqqiy etgan.  
 B) suyri shaklda, oyoqlari eshkakka aylangan.  
 C) tanasi yumaloq, tanasi yaxshi taraqqiy etgan.  
 D) oyoqlari belkurakka aylangan.
11. O`zbekistonda zoologiya fanining rivojlanishiga hissa qo`shgan olimlar ?  
 1) Zokirov.Q.Z 2) Zohidov.T.Z 3) Muzaffarov.A.M 4) Azimov.J.A  
 5) Saidov.J.K 6) Kashkarov.D.N 7) Yaxontov.V.V 8) To`laganov.A.T  
 9) R.SMuhamedov 10) Sultonov.M.A  
 A) 1,2,3,4,5,10. B) 2,4,6,7,8,10. C) 5,6,7,8,9,10. D) 1,4,3,6,7,8,9.
12. Hayvonlarning asosiy yashash muhitlarini ko`rsating ?  
 1) tuproq 2) cho`l 3) dala 4) suv 5) tirik organizm 6) havo 7) o`rmon  
 8) dengiz 9) quruqlik  
 A) 1,4,5,6,9. B) 1,2,3,4,5. C) 6,7,8,9,4. D) 1,4,8,9,7,6.
13. Qaysi hayvonlar tabiiy sanitarlar deyiladi ?  
 1) o`txo`r 2) parazit 3) suvni filtrlab oziqlanadigan 4) gullarni changlantiruvchi  
 5) hayvonlar murdasi bilan oziqlanuvchi organizmlar 6) yovvoyi hayvonlar  
 7) chiqindilar bilan oziqlanadigan 8) o`simliklar qoldiqlari bilan oziqlanadigan  
 A) 1,2,3,4,5. B) 3,5,7,8. C) 2,6,5,8,7. D) 1,3,4,6,7,8.
14. Odam faoliyati tufayli qirilib ketgan hayvonlarni juftlab ko`rsating ?  
 1) Stellerov sigiri 2) Yevropa turi 3) Tarpan 4) Zubr 5) Bizon 6) Jayron  
 A) 1,2,6. B) 4,5,6. C) 1,2,3. D) 2,4,5.
15. Olimlar va ularning xizmatlarini juftlab ko`rsating ?  
 1) Arastu 2) Levenguk 3) Linney 4) Darvin 5) Isayev 6) Zohidov  
 a) hayvonlarni klassifikatsiyasini ishlab chiqdi b) umurtqali hayvonlarni o`rgandi  
 c) bir hujayralilarni kashf etdi d) parazit hayvonlarni o`rgandi  
 g) hayvonlarni o`rganishni boshlab berdi j) evolutsiya ta`limotini yaratdi  
 A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-g, 6-j. B) 1-g, 2-c, 3-a, 4-j, 5-d, 6-b.  
 C) 1-g, 2-b, 3-c, 4-j, 5-d, 6-b. D) 1-a, 2-b, 3-a, 4-j, 5-g, 6-b.
16. Hayvonlar guruhi bilan ularning yashash muhitiga moslanish xususiyatlarini juftlab yozing ?  
 1) parazit 2) suv hayvonlari 3) tuproq hayvonlari 4) quruqlik hayvonlari  
 a) gavdasi suyri shaklda b) oldingi oyoqlari kengaygan c) keyingi oyoqlari kuchli taraqqiy etgan  
 d) yopishuv organlari rivojlangan  
 A) 1-d, 2-a,3-b, 4-c. B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d.  
 C) 1-d, 2-b, 3-b, 4-d. D) 1-b,2-c,3-d,4-b.
17. Hayvonlar va ularning ahamiyatini juftlab ko`rsating ?  
 1) qon so`ruvchi 2) ko`rshapalaklar 3) arilar 4) yirtqich qushlar  
 5) zararkunandalar a) gullarni changlatadi b) kemiruvchilarni qiradi c) kasallik tarqatadi  
 d) qon so`ruvchi hasharotlarni qiradi j) hosilni kamaytiradi

- A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-j.                      B) 1-d, 2-c, 3-a, 4-j, 5-b.  
 C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-j, 5-b.                      D) 1-d, 2-a, 3-d, 4-b, 5-j.
18. Qaysi javoblar hayvonlarning o`simliklarga o`xshashligini ko`rsatadi ?  
 1) hujayradan tuzilganligi 2) hujayra membranasi 3) hujayra po`sti yupqaligi  
 4) yadrosining bo`lishi 5) organik moddalar bilan oziqlanishi 6) ko`pchiligi  
 faol harakatlanishi 7) ko`pchilik o`xshash hujayralar organoidlari  
 8) xloroplastlarining bo`lmasligi  
 A) 1,4,7.    B) 1,2,3.    C) 3,4,5.    D) 6,7,8.
19. Hayvonlarning eng oliy, eng katta va eng kichik sistematik birligini ko`rsating ?  
 A) hayvonot olami va turkum.                      B) hayvonot olami va tur.  
 C) tip, sinf, turkum.                                      D) tur va oila.
20. Hayvonot olami tiplari ketma-ketligi to`g`ri berilgan javobni toping ?  
 1) sodda hayvonlar 2) yassi chuvalchanglar 3) bo`g`imoyoqlilar 4) halqali  
 chuvalchanglar 5) mollyuskalar 6) to`garak chuvalchanglar 7) bo`shliqichlilar  
 8) xordalilar  
 A) 1,2,3,4,5,6,7,8    B) 1,3,5,2,4,6,8,7    C) 1,7,2,6,4,5,3,8.    D) 1,2,4,6,5,7,3,8.
21. Quyidagi javoblarning qaysi birida hayvonlar sistematikasi to`g`ri joylashtirilgan ?  
 A) tur, avlod, oila, sinf, turkum, tip.    B) tur, avlod, oila, turkum, sinf, tip.  
 C) tur, oila, avlod, turkum, sinf, tip.    D) tur, oila, avlod, sinf, turkum, tip.
22. Hayvonlar klassifikatsiyasida yaqin, o`xshash oilalarning qo`shilishi`dan hosil bo`ladigan taksanomik birlik qanday nomlanadi ?  
 A) tur.    B) turkum.    C) sinf.    D) tip.
23. O`zbekistonda hayvonlar ekologiyasini o`rganishni boshlab bergan olim ?  
 A) D.N.Kashkarov.    B) T.Z.Zohidov    C) K.Z.Zokirov.    D) A.T.To`laganov.
24. Qaysi javoblar epiteliy to`qima uchun xos ?  
 1) qisqarish xususiyatiga ega 2) tolalardan tashkil topgan 3) zich joylashgan  
 hujayralardan iborat 4) teri sirti va ichakning ichki yuzasini qoplab turadi  
 5) silliq va ko`ndalang chiziqli tolalardan iborat 6) organizmni himoya qiladi  
 7) biologik faol moddalar ishlab chiqaradi 8) harakatlanish vazifasini bajaradi  
 A) 1,3,4,5.    B) 5,6,7,8.    C) 3,4,6,7.    D) 1,2,5,8.
25. Umurtqali hayvonlarni o`rganish sohasida katta tadqiqot olib borgan O`zbekistonlik olimlarni belgilang ?  
 A) L.M.Isayev, P.F.Borovskiy.  
 B) T.Z. Zohidov, O.P.Bogdanov.  
 C) A.M.Alimhammedov, V.V.Yaxontov.  
 D) A.T.To`laganov, D.N.Kashkarov.
26. Hayvonlar uchun xarakterli to`qimalarni toping ?  
 1) mexanik 2) biriktiruvchi 3) o`tkazuvchi 4) muskul 5) nerv 6) epiteliy  
 A) 2,4,5,6.    B) 1,2,3,6.    C) 1,2,5,7.    D) 1,4,5,7.
27. Qaysi javoblar o`simlikning hayvonlardan farqini ko`rsatadi ?  
 1) hujayralardan tuzilganligi 2) hujayra qobig`i 3) yadrosining bo`lishi

4) hujayra shirasi bilan to'lgan vakuolaning bo'lishi 5) organik moddalar hosil qilishi 6) harakatsizligi 7) xloroplastlarning bo'lishi 8) geterotrof oziqlanishi  
A) 1,2,3,4,5. B) 2,4,5,6,7. C) 1,2,4,6,8. D) 1,3,8,5,6.

28. Qaysi javoblar muskul to'qima uchun xos ?

1) qisqarish xususiyatiga ega 2) tolalardan tashkil topgan 3) zich joylashgan hujayralardan iborat 4) teri sirti va ichakning ichki yuzasini qoplab turadi 5) silliq va ko'ndalang chizikli tolalardan iborat 6) organizmni himoya qiladi 7) biologik faol moddalar ishlab chiqaradi 8) harakatlanish vazifasini bajaradi  
A) 1,3,4,5. B) 5,6,7,8. C) 3,4,6,7. D) 1,2,5,8.

29. Qaysi javoblar biriktiruvchi to'qima uchun xos ?

1) hujayra va organlar oralig'ini to'ldirib turadi 2) yuldzisimon hujayralar va ular orasidagi moddalardan iborat 3) hujayralari o'simtalar hosil qiladi 4) suyuq, g'ovak, qattiq xillari mavjud 5) ta'sirni qabul qiladi 6) ta'sirni o'tkazadi 7) to'qima va organlarni bog'laydi 8) O<sub>2</sub> oziq moddalarni tashiydi 9) zaxira oziq modda to'playdi 10) ta'sirga javob beradi 11) tayanch vazifasini bajaradi 12) sezgi hosil qiladi  
A) 1,4,7,8,9,11. B) 2,3,5,6,10,11. C) 1,2,3,4,5,6. D) 7,8,9,10,11,12.

30. Qaysi javoblar nerv to'qima uchun xos ?

1) hujayra oralig'ini to'ldirib turadi 2) yuldzisimon hujayralar va ular orasidagi moddalardan iborat 3) hujayralari o'simtalar hosil qiladi 4) suyuq, qattiq, g'ovak xillari mavjud 5) ta'sirni qabul qiladi 6) ta'sirni o'tkazadi 7) to'qima va organlarni bog'laydi 8) O<sub>2</sub> oziq moddalarni tashiydi 9) zaxira oziq modda to'playdi 10) ta'sirga javob beradi 11) tayanch vazifasini bajaradi 12) sezgi hosil qiladi  
A) 1,4,7,8,9,11 B) 2,3,5,6,10,12. C) 1,2,3,4,5,6 D) 7,8,9,10,11,12.

31. To'qimalar nomi va ularning hujayralari tuzilishini juftlab ko'rsating ?

1) muskul 2) nerv 3) epiteliy 4) biriktiruvchi a) tolalarda ko'ndalang chiziqchalar bor b) oraliq moddasi ko'p c) tolalari uzun d) hujayralari zich joylashgan

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d. B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c.

C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b. D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-d.

32. Qaysi hayvonlarning qirilib ketish xavfi tug'ilmoqda ?

A) Yevropa turi, tarpan, Steller sigiri.

B) Qoramol nasl boshi, otlar nasl boshi, dengiz hayvonlari.

C) Prjevalskiy oti, zubr, bizon, jayron, xongul.

D) Xongul, otlar nasl boshi, Yevropa turi.

## II BOB . Bir hujayralilar, ya`ni sodda hayvonlar.

1. Sodda hayvonlar tipiga qaysi sinflar kiradi ?

1) soxta oyoqlilar 2) poliplar 3) meduzalar 4) xivchinlilar 5) infuzoriyalilar  
6) qorinoyoqlilar 7) sporalilar

A) 1,4,5,6. B) ,2,3,6. C) 1,2,5,7. D) 1,4,5,7.

2. Qaysi hayvon soxta oyoqlari bilan harakat qiladi ?

A) tufelka. B) volvoks. C) yashil evglena. D) amyoba.

3. Amyoba shaklining o`zgaruvchan bo`lishiga sabab nima ?

A) hujayrasida sitoplazma harakatlanib turadi.

B) hujayrasi sirtida qattiq qobiq bo`lmasligi.

C) soxta oyoqlar hosil bo`lishi.

D) qisqaruvchi vakuolalari o`zgarib turishi.

4. Qaysi sodda hayvonlar doimo o`z shaklini o`zgartirib turadi ?

A) amyoba. B) evglena. C) tufelka. D) volvoks.

5. Amyobaning soxta oyoqlari deganda nimani tushunasiz ?

A) sitoplazma membranasining o`simtasi.

B) tana qoplovchi qobiqning o`simtasi.

C) sitoplazmaning ipsimon o`simtasi.

D) sitoplazma oqimi hisobiga hosil bo`lgan o`simta.

6. Qaysi sinf vakillari tanasining shakli doimiy bo`lmaydi ?

A) soxta oyoqlilar. B) xivchinlilar. C) infuzoriyalar. D) sporalilar.

7. Oddiy amyobaning soxta oyoqlari qanday vazifani bajaradi ?

1) nafas olish 2) oziqlanish 3) ko`payish 4) ayirish 5) harakatlanish

A) 1,2. B) 2,3. C) 3,4. D) 2,5.

8. Amyobaning hazm qilish vakuolasi qaysi paytda paydo bo`ladi ?

A) yadrodan hazm shirasi ajralishi bilan.

B) sitoplazma bo`linishi bilan.

C) sitoplazmadan hazm shirasi ajralishi bilan.

D) sista hosil qilishi bilan.

9. Amyobaning hayot faoliyati uchun zarur energiya qaysi jarayonda hosil bo`ladi ?

A) oziqlanish. B) nafas olish. C) ko`payish. D) harakat.

10. Amyoba sitoplazmasida moddalar parchalanganda nima hosil bo`lishi mumkin ?

1) energiya ajraladi 2) energiya yutiladi 3) zararli moddalar 4) kislorod 5) suv

A) 1,3. B) 2,3. C) 2,4. D) 1,4.

11. Amyobaning nafas olish organi vazifasini nima bajaradi ?

A) jabra. B) o`pka. C) teri. D) butun tana yuzasi.

12. Amyobalarda oziq moddalar nima ta'sirida hazm bo'ladi ?

A) sitoplazma shirasi B) yadro shirasi

C) gormonlar D) hazm shirasi

13. Ohak chig'anoqli (I) va kremniy skeletli (II) sodda hayvonlar va ularning ahamiyatini aniqlang. 1) nursimonlar 2) foraminifera a) ohaktosh konlarini hosil qilgan b) jilvir qog'oz tayyorlashda foydalaniladi c) metallarni silliqlashda foydalaniladi d) zeb-ziynat buyumlari tayyorlanadi

- A) I- 1, a; II - 2,b,c                      B) I-2, b, c; II - 1, a, d  
C) I- 1, b, c; II -2,a,d                    D) I-2, a; II - 1, b, c

14. Amyoba tanasidan ortiqcha suv va zararli moddalar qaysi organoid ishtirokida chiqarib yuboriladi ?

- A) soxta oyoqlar                              B) anal teshigi  
C) hazm vakuolalari                        D) qisqaruvchi vakuolalar

15. Amyobali suv tomchisiga osh tuzi qo'shilsa nima kuzatiladi ?

a) soxta oyoqlarini tortib oladi b) soxta oyoqlarini otib chiqaradi c) sharsimon shaklga kiradi d) tanasi cho'ziladi va ikkiga bo'linadi

- A) b, c                      B) b,d                      C) a, c                      D) a, d

16. Amyobaning ko'payishida qanday jarayonlar kuzatiladi ?

Ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

a) yadro hajmi ortadi b) yadro qobig'i yemriladi c) yadro qismlari hujayraning ikki tomoniga teng taqsimlanadi d) hujayraning ikki tomonida yadro hosil bo'ladi e) amyoba tanasi cho'ziladi va ikkiga bo'linadi f) yadro hajmi kamayadi j) yadro qobig'i qalinlashadi k) yadro va amyoba tanasi barobar cho'ziladi va ikkiga bo'linadi l) hosil bo'lgan hujayralarda qo'shimcha yadro hosil bo'ladi

- A) f, j, k, l                      B) a, b, c, d, e                      C) a, c, d, k, l                      D) f, j, k, b

17. Ohak chig'anoqli soxta oyoqlilar vakilini aniqlang.

- A) nursimonlar                      B) nozema                      C) foraminifera                      D) ichburug' amyobasi

18. Soxta oyoqlilarga mansub bo'lmagan hayvonni aniqlang.

- A) nursimonlar                      B) nozema                      C) foraminifera                      D) ichburug` amyobasi

19. Kremniy skeletli sodda hayvonni aniqlang.

- A) nursimonlar                      B) nozema                      C) foraminifera                      D) ichburug amyobasi

20. Qaysi javoblar bir hujayralilar sinfiga mos keladi ?

A) tanasi bitta hujayradan iborat mustaqil oziqlanish, o`shish va ko`payish xususiyatlariga ega

B) murakkab tuzilgan.

C) hujayralar yirik.

D) mustaqil oziqlanish, o`shish va ko`payish xususiyatlariga ega.

21. Soxta oyoqlilar uchun xos bo`lgan belgilar ?

1) qattiq hujayra qobig`i bo`lmaydi 2) shakli o`zgaruvchan 3) tanasi duksimon 4) tanasi qattiq qobiq bilan qoplangan 5) soxta oyoqlar hosil qiladi 6) asosan jinsiy ko`payadi

- A) 1,2,3.                      B) 4,5,6.                      C) 1,2,6.                      D) 1,2,5.

22. Amyoba organoidlari va ularning vazifasini juftlab ko`rsating ?

1) soxta oyoqlari 2) yadro 3) hazm vakuola 4) qisqaruvchi vakuola

a) ortiqcha suv, moddalar almashinuvi natijasida hosil bo`lgan mahsulotlarni chiqarish b) harakatlanish, oziqni qamrab olish c) hazm qilish d) ko`payishda ishtirok etish

A) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a.

B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d.

C) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a.

D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b.

23. Amyobaning jinssiz ko`payishida sodir bo`ladigan jarayonlarni tartib bilan ko`rsating ?

1) yadrolar bo`linayotgan hujayralarni ikki tomoniga o`tadi 2) sitoplazma ko`prigi uziladi 3) yadro cho`ziladi 4) ikkita amyoba hosil bo`ladi 5) yadro ikkiga ajraladi 6) hujayra ikkiga ajraladi.

A) 1,2,3,4,5,6.

B) 4,5,6,1,2,3.

C) 3,5,1,2,6,4.

D) 2,3,5,1,4,6.

24. Soxta oyoqlilarni, ularni ahamiyati bilan juftlab ko`rsating ?

1) ichburuq amyobasi 2) foraminifera 3) nursimonlar a) chig`anoqli ohaktosh konlarini hosil qiladi b) skeleti qoldig`idan jilvir qog`oz tayyorlanadi c) ichakda yara hosil qiladi

A) 1-a, 2-b, 3-c.

B) 1-b, 2-c, 3-b.

C) 1-c, 2-b, 3-a.

D) 1-c, 2-a, 3-b.

25. Suvga ozroq osh tuzi qo`shilganda amyoba qanday shaklga kiradi ?

A) sharsimon.

B) cho`zinchoq.

C) silindirsimon.

D) gardishsimon.

26. Amyobaning qisqaruvchi vakuolasi qanday vazifani bajaradi ?

A) soxta oyoqlarni harakatga keltiradi.

B) ko`payishda ishtirok etadi.

C) hazm shirasi ajratadi.

D) ortiqcha suv va zararli moddalarni tashqariga chiqaradi.

27. Evglenaning yorug`likni sezadigan ko`zchasi qanday rangda bo`ladi ?

A) rangsiz.

B) oq.

C) sariq.

D) qizil.

28. Evglena qanday belgilari bilan amyobadan farq qiladi ?

1) 1 hujayradan iborat 2) tanasi doimiy shaklga ega 3) tanasi doimiy shaklga ega emas 4) qisqaruvchi vakuolasi bo`lishi 5) oziqlanishi 6) harakatlanishi

A) 1,3,5.

B) 2,3,4.

C) 2,5,6.

D) 1,3,4.

29. Yashil evglena qanday usulda oziqlanadi ?

A) yashil o`simliklar singari.

B) tayyor organik moddalar bilan.

C) parazit usulda.

D) yashil o`simliklar va hayvonlar singari.

30. Zaxira oziq moddalarni to`playdigan sodda hayvonlarni belgilang ?

A) amyoba.

B) evglena.

C) infuzoriya.

D) bezgak paraziti.

31. Hujayrasida xloroplastlar bo`ladigan hayvonlarni belgilang ?

A) amyoba, tufelka.

B) bezgak paraziti, volvoks.

C) evglena, amyoba.

D) volvoks, evglena.

32. Evglena sista hosil qilganda qaysi qismi tushub ketadi ?

A) qobig`i.

B) vakuolasi.

C) xivchini.

D) yadro.

33. Oziqlanishiga ko`ra yashil o`simliklarga o`xshash bolgan sodda hayvonlar.?

A) amyoba, volvoks.

B) tufelka, evglena.

C) bezgak paraziti, volvoks.

D) evglena, volvoks.

34. Volvoksning ichki qismi qaysi modda bilan to'lgan?  
 A) suyuq jelatin. B) yarim suyuq kolloid.  
 C) suyuq, yopishqoq. D) suyuq, dildiroq.
35. Amyoba va evglena noqulay sharoitlarni qanday o'tkazadi ?  
 A) hayoti uchun qulay sharoit topadi. B) oziqlanish usulini o'zgartiradi.  
 C) o'sishdan to'xtaydi. D) sista hosil qiladi.
36. Tanasi kipriklar bilan qoplangan sodda hayvonni belgilang ?  
 A) volvoks. B) oddiy amyoba. C) infuzoriya-tufelka. D) yashil evglena.
37. Volvoksning hujayralari evglenadan qanday farq qiladi ?  
 A) noksimon shaklli va ikkita xivchinli bo'lishi bilan.  
 B) noksimon shaklli va xivchinsiz bo'lishi bilan.  
 C) shakli tufliga o'xshash, xivchinlari ko'p.  
 D) shaklsiz ikki xivchinli bo'lishi bilan.
38. Xivchinlilar sinfining umumiy tavsifiga mos keladigan javoblarni aniqlang ?  
 1) 1 ta yoki bir necha xivchin 2) hujayra qobig'i qattiq 3) tanasi kipriklar bilan qoplangan 4) yadrosi 2 xil 5) yakka yoki koloniya bo'lib yashaydi 6) tayyor oziq bilan oziqlanasi 7) boshqa 1 hujayralilarga nisbatan murakkab tuzilgan 8) tana shakli doimiy  
 A) 1,2,5,8. B) 3,4,6,7,8. C) 3,4,8,2,1. D) 1,3,4,6.
39. Evglena qanday tuzilgan ?  
 A) yassi sharsimon shakli doimiy. B) duksimon shaklli, shakli doimiy emas.  
 C) duksimon shakli doimiy. D) qalin qobiq bilan qoplangan.
40. Evglena organoidlari va ularning vazifasini juftlab ko'rsating ?  
 1) xivchin 2) qizil dog' ko'zcha 3) xromotofor a) yorug'likni sezish b) harakatlanish c) fotosintez.  
 A) 1-a, 2-b, 3-c. B) 1-b, 2-a, 3-c. C) 1-a, 2-c, 3-b. D) 1-c, 2-a, 3-b.
41. Evglenaning jinssiz ko'payishini tartib bilan ko'rsating ?  
 1) yadro moddasi ikkiga bo'linadi 2) eski xivchini yonida ikkinchi xivchin hosil bo'ladi 3) ikkita yosh evglena hosil bo'ladi 4) tanasi ikki xivchin o'rtasida bo'yiga ikkiga bo'linadi 5) yadrosi yiriklashib yadro qobig'i yemriladi.  
 A) 1,2,3,4,5. B) 2,3,4,5,1. C) 4,5,6,7,1. D) 5,1,2,4,3.
42. Xivchinlilar va ular paydo qiladigan kasalliklarni juftlab ko'rsating.?  
 1) tripanasoma 2) leyshmaniya a) uyqu kasalligi b) o't yo'llarining yallig'lanishi c) teri yarasi.  
 A) 1-a, 2-b, B) 1-a, 2-c, . C) 1-b, 2-a, . D) 1-b, 2-c, .
43. Evglenaga xos bo'lmagan belgini aniqlang.  
 A) qizil "ko'zchali" bo'ladi  
 B) qobig'ining ostida kuydiruvchi tanachalar joylashgan  
 C) yadro va xivchini bittadan  
 D) xlorofill pigmentli xromatoforlari mavjud
44. Evglenaning amyobadan farqi nimada?  
 A) yadrosi bitta  
 B) qisqaruvchi vakuola ortiqcha suvni chiqarib yuboradi

- C) tanasi doimiy shaklga ega  
D) jinssiz ko'payadi
45. Evglenaning qaysi organoidida organik moddalar hosil bo'ladi ?  
A) xromoplastlarida                      B) qizil ko'zchasida  
C) vakuolalarida                          D) xromatoforlarida
- 46 Evglena qorong'i joyda uzoq saqlansa ...  
a) xlorofili yemriladi b) rangsizlanadi c) tayyor organik moddalar bilan oziqlanadi d) organik moddalar og'iz teshigi orqali kiradi e) organik moddalarni tana yuzasi orqali shimib oladi f) xlorofilli donachalari sintezi kuchayadi  
A) a, b, c, e                      B) a, b, c, d                      C) c, d, f                      D) a, b, c, d, e, f
47. Noqulay sharoitda evglena nimaga aylanadi ?  
A) sporaga    B) gametaga    C) sistaga    D) zoosporaga
48. Evglena (1) va volvoks (2) tanasining shakli qanday ko'rinishda bo'ladi ?  
A) 1 duksimon; 2 noksimon                      B) 1 noksimon; 2 duksimon  
C) 1 duksimon; 2 sharsimon                      D) 1 noksimon; 2 sharsimon
49. Koloniya tarkibidagi volvokslar o'zaro nima orqali bog'lanadi ?  
A) xivchinlar                      B) endoplazmatik to'r  
C) yadro membranasining ipchalari    D) sitoplazmatik ipchalar
50. Yer yuzasining ohaktoshli qismi asosan qaysi hayvon qoldiqlaridan tashkil topgan ?  
A) radiolyariyalar.    B) aureliya.    C) foraminiferalar.    D) aktiniyalar.
51. Qaysi sodda hayvonni skeleti qoldig`idan metallarni silliqlashda foydalaniladi ?  
A) foraminiferalar.    B) nursimonlar.    C) triponosomalar.    D) leyshmaniyalar.
52. Triponosomalar qayerda yashaydi va qaysi kasallikni keltirib chiqaradi ?  
A) jigarda, bezgak.                      B) qonda, bezgak.  
C) qonda, uyqu.                      D) jigarda, uyqu
53. Odam teri hujayralarida parazitlik qiladigan xivchinlilarni toping ?  
A) tripanasoma.    B) infuzoriya.    C) volvoks.    D) leyshmaniya.
54. Qaysi bir hujayrali hayvon odam terisida uzoq vaqt tuzalmaydigan yara hosil qiladi ?  
A) bezgak paraziti.    B) eyneziya.    C) koksidiyalar.    D) leyshmaniyalar.
55. Infuzoriyalar uchun xos belgini ko`rsating ?  
1) bitta yoki bir necha xivchin 2) hujayra qobig`i qattiq 3) tanasi kipriklar bilan qoplangan 4) yadrosi 2 xil 5) yakka yoki koloniya bo`lib yashaydi 6) tayyor oziq bilan oziqlanadi 7) boshqa 1 hujayralilarga nisbatan murakkab tuzilgan 8) tana shakli doimiy  
A) 1,2,5,8.    B) 3,4,6,7,8.    C) 3,4,8,2,1.    D) 1,3,4,6.
56. Tufelka (1), amyoba (2), ichburug` amyobasi (3), foraminifera, nursimonlar (4), yashil evglena (5), volvokslar (6) qanday suv havzalarida uchrashini juftlang?

a) o`simliklar qoldiqlari ko`p bo`lgan suvlarda b) iflos suvli hovuz va ko`llarda  
c) ko`lmak suv va hovuzlarda d) dengizlarda j) odam, sutemizuvchilar ichagida  
k) barg va xas cho`plar bilan ifloslangan ko`lmak suvlar tubida

A) 1-a, 2-k, 3-j, 4-d, 5-c, 6-b.

B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-j, 6-b.

C) 1-b, 2-k, 3-j, 4-d, 5-c, 6-a.

D) 1-k, 2-a, 3-j, 4-d, 5-c, 6-b.

57. Tufelka qanday tuzilgan ?

1) uzunligi 0,1-0,3 mm 2) 0,5-0,7 mm 3) poyabzal shaklida 4) dumaloq

5) bodringsimon shaklda 6) duksimon 7) tanasi kipriklar bilan qoplangan

A) 1,3,4. B) 2,5,7. C) 1,3,5,7. D) 1,3,6,7.

58. Amyoba (1), tufelka (2), evglena (3), qanday harakatlanadi ?

a) kipriklari to`lqinsimon tebranib to`mtoq tomoni bilan oldinga suzadi

b) xivchini vintga o`xshash buralib harakatlanadi c) soxta oyoqlari yordamida harakatlanadi

A) 1-c, 2-a, 3-b. B) 1-a, 2-c, 3-b. C) 1-a, 2-b, 3-c. D) 1-c, 2-b, 3-a.

59. Tufelkaning oziqlanishi va oziqni hazm bo`lish jarayonini tartib bilan ko`rsating ?

1) oziq halqum tubida to`planadi 2) hazm bo`lmagan oziq qoldiqlari chiqarish

teshigidan chiqariladi 3) oziqning hazm bo`lmagan qismi sitoplazmaga so`riladi

4) kipriklar oziqni og`iz oldi chuqurchasiga haydaydi 5) oziq og`iz orqali

halqumga o`tadi 6) oziq hazm vakuolasi orqali sitoplazmani aylanib yuradi

7) oziqqa sitoplazmadan shira ajralib hazm qilish vakuolasi shakllanadi

A) 1,2,3,4,5,6,7. B) 2,3,4,5,6,1. C) 4,5,1,7,3,2. D) 4,5,6,7,2,1.

60. Tufelka ko`payishi jarayoni tartibini ko`rsating ?

1) katta yadro bo`linadi 2) kichik yadro bo`linadi 3) tanasi o`rtasidan

ingichkalashgan 4) yangi yadro hosil bo`ladi 5) tanasi o`rtasidan bo`linadi

A) 1,2,3,4,5. B) 2,3,4,5,1. C) 4,5,2,3,1. D) 2,1,3,4,5.

61. Tufelkaning boshqa bir hujayralilarga nisbatan murakkab tuzilish belgilari ?

A) kipriklar bilan harakatlanishi.

B) hazm qilish, ayirish sistemasi murakkab tuzilgan.

C) yadrosi ikki xil yirik bo`lishi.

D) qisqaruvchi vakuolasi ikkita .

62. Og`iz teshigi bo`lgan sodda hayvonlarni belgilang ?

A) amyoba. B) evglena. C) tufelka. D) foraminifera.

63. Qaysi hayvonlarning ozig`i halqumi tubida to`planadi ?

A) aktiniya. B) aureliya. C) tufelka. D) leyshmaniya.

64. Infuzoriya-tufelkada necha xil vakuola borligini aniqlang ?

A) 1 xil. B) 2 xil. C) 3 xil. D) ko`p.

65. Bir hujayralilardan ikki yadrosi bo`lganini toping.

A) amyoba. B) evglena. C) tufelka. D) volvoks.

66. Qaysi sodda hayvon kuchli ta`sirlanish xususiyatiga ega?

A) infuzoriya. B) leyshmaniya. C) evglena. D) volvoks.

67. Otiluvchi tanachalari bo`lgan sodda hayvonni toping?

A) triponosoma. B) leyshmaniya. C) tufelka. D) bezgak paraziti.

68. Tufelkaning sezgir tayoqchasimon tanachalari uning qaysi qismida joylashgan bo`ladi ?

- A) kichik yadro. B) sitoplazmada.  
C) qisqaruvchi vakuola. D) tana qobig`ining ostida.

69. Qaysi hayvonning ovqat hazm qilish vakuolasi uzilib, sitoplazmaga tushadi ?

- A) nursimonlar. B) leyshmaniya. C) evglena. D) tufelka.

70. Tufelka qaysi sinfga mansub ?

- A) soxta oyoqlilar B) xivchinlilar C) infuzoriyalar D) sporalilar

71. Tufelkaga xos bo'lmagan belgini aniqlang.

- A) tanasi kipriklar bilan qoplangan  
B) halqum va chiqaruvchi teshigi mavjud  
C) kuydiruvchi tanachalar mavjud  
D) ektoderma qavatida xivchinli hujayralar mavjud

72. Infuzoriya tanasining qaysi qismi bilan oldinga qarab harakatlanadi ?

- A) to'mtoq qismi bilan B) ingichka uchi bilan  
C) aylanasimon qismi bilan D) yon tomoni bilan

73. Tufelka tanasida qaysi organoidlari ikkitadan bo'ladi?

- A) yadro va qisqaruvchi vakuolalar  
B) yadro va hazm vakuolalar  
C) hazm va qisqaruvchi vakuolalar  
D) yadro, qisqaruvchi vakuolalar va mitoxondriya

74. Sporalilar uchun xos bo'lmagan belgini ko`rsating ?

- A) odam va hayvon parazitini.  
B) murakkab tuzilgan.  
C) hazm qilish, ayirish, harakat organoidlari bo'lmaydi.  
D) sodda tuzilgan.

75. Sporalilar va ular paydo qiladigan kasalliklarni juftlab ko`rsating ?

- 1) bezgak paraziti 2) asalari nozemasi 3) ipak qurti nozemasi. a) ich ketish  
b) bezgak c) qora son

- A) 1-a, 2-b, 3-c. B) 1-c, 2-b, 3-a. C) 1-b, 2-a, 3-c. D) 1-b, 2-c, 3-a.

76. Tufelka organoidlari, ularning joyini juftlab ko`rsating ?

- 1) qisqaruvchi vakuolalar 2) hazm qilish vakuolasi 3) og`iz oldi chuqurchasi  
4) og`iz teshikchasi 5) kipriklar 6) chiqaruv teshikchasi

a) chuqurcha tubida b) tanasining yon tomonida c) tanasini bir tekis qoplab olgan d) tanasining oldingi va keyingi tomonida k) sitoplazmada j) tanasining keyingi qismida

- A) 1-d, 2-k, 3-b, 4-a, 5-c, 6-j. B) 1-d, 2-k, 3-a, 4-b, 5-j, 6-c.  
C) 1-k, 2-d, 3-b, 4-a, 5-j, 6-c. D) 1-a, 2-k, 3-d, 4-b, 5-c, 6-j.

77. Bir hujayralilarning eng qadimgisi (1), eng murakkabi (2), eng soddasi (3), parazit (4), yashaydiganlarini juftlang ?

- a) soxta oyoqlilar b) xivchinlilar c) infuzoriyalar d) sporalilar

- A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d. B) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d.  
C) 1-b, 2-a, 3-b, 4-d. D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a.

78. Sporalilarni yer yuizida qancha turi ma`lum ?

- A) 40000. B) 70000. C) 4000. D) 700000.

79. Bir hujayralilarning yer yuzida qancha turi bor ?  
 A) 40000.            B) 12000.            C) 20000.            D) 70000
80. Ozig`i hazm vakuolalarida sodir bo`ladigan hayvonlar ?  
 1) ichburug` amyobasi, 2) nozema, 3) bezgak parazitlari, 4) infuzoriya, 5) aktiniya, 6) gidra  
 A) 2,4,5,            B) 2,3,            C) 1,3,5,6,            D) 1,4,5,
81. Sodda hayvonlardan qaysi sinf vakillari faqat parazitlik qilib hayot kechiradi ?  
 A) infuzoriyalar.    B) xivchinlilar.    C) sporalilar.            D) soxta oyoqlilar.
82. Nozema sodda hayvonlarning qaysi guruhiga mansub va u qayerda parazitlik qiladi ?  
 A) xivchinlilar, tut ipak qurtida    B) infuzoriya, asalarida  
 C) sporalilar, odam qonida            D) sporalilar, tut ipak qurtida
83. Quyida berilgan qaysi hayvon suvo`ti bilan bir hujayralilar o`rtasidagi oraliq forma hisoblanadi ?  
 A) ildizoyoqlilar.    B) xivchinlilar.    C) kovakichlilar.            D) sporalilar.
84. Qaysi hayvonlarda to`qima bo`lmaydi ?  
 1) sodda hayvonlarda    2) kovakichlilarda    3) mollyuskalarda    4) yassi chualchanglarda  
 5) yumaloq chualchanglarda    6) bo`g`imoyoqlilarda  
 A) 1,2.            B) 3,4.            C) 5,6.            D) 3,5.
85. Qaysi sodda hayvon qon zardobida parazitlik qiladi ?  
 A) nozema            B) ichburug' amyobasi  
 C) leishmaniya            D) tripanosoma
86. Qaysi sodda hayvonni skeleti qoldig`idan jilvir qog`oz tayyorlashda foydalaniladi ?  
 A) foraminiferalar.            B) nursimonlar.  
 C) tripanosomalar.            D) leishmaniyalar.
87. Qaysi sodda hayvon ichakda parazitlik qiladi ?  
 A) nozema            B) ichburug' amyobasi  
 C) leishmaniya            D) tripanosoma
88. Qaysi sodda hayvonlar qon zardobida (1) va qon eritrotsitlarida (2) yashaydi ?  
 a) leishmaniya    b) tripanosoma    c) bezgak parazitlari    d) askarida lichinkasi  
 A) 1 a; 2 d            B) 1 c; 2 b            C) 1 d; 2 a            D) 1b; 2 c
89. Eng murakkab tuzilgan bir hujayralilarni aniqlang.  
 A) xivchinlilar            B) soxta oyoqlilar  
 C) infuzoriyalar            D) aktiniyaJar
90. Sodda hayvonlarning hujayrasi ko'p hujayralilarning bitta hujayrasidan nima bilan farqlanadi?  
 A) hujayrasi faqat bitta hayotiy jarayonda (ko'payishda) qatnashadi  
 B) hujayrasida barcha hayotiy jarayonlar sodir bo'ladi  
 C) yadrosi bo'lmaydi  
 D) ko'payishda va modda almashinuvida qatnashmaydi
91. Nozemaga xos bo'lgan belgilarni ajrating.  
 a) harakatlanish organoidi bo'lmaydi    b) harakatlanish organoidi bo'ladi

c) hazm organoidi bo'lmaydi d) hazm organoidi bo'ladi e) ayirish organoidi bo'lmaydi f) ayirish organoidi bo'ladi j) tut ipak qurti va asalari parazit  
k) odam paraziti

A) a, c, e, j      B) b, d, f, k      C) a, c, f, k      D) b, d, e, j

92. Nozemaga xos bo'lmagan belgilarni ajrating.

a) harakatlanish organoidi bo'lmaydi b) harakatlanish organoidi bo'ladi  
c) hazm organoidi bo'lmaydi d) hazm organoidi bo'ladi e) ayirish organoidi bo'lmaydi f) ayirish organoidi bo'ladi j) tut ipak qurti va asalari parazit  
k) odam paraziti

A) a, c, e, j      B) b, d, f, k      C) a, c, f, k      D) b, d, e, j

93. Sporalilar hujayrasida ... bo'ladi.

A) yadro, hujayra membranasi  
B) yadro, hazm vakuolasi, sporasi  
C) hujayra membranasi, ayirish organoidi  
D) hazm, ayirish, harakatlanish organoidlari

94. Sodda hayvonlarning tashqi muhit ta'sirlariga javob reaksiyasi qanday nomlanadi ?

A) refleks    B) taksis    C) nastiya    D) transpiratsiya

95. Tuzalmaydigan yara hosil qiluvchi parazitni aniqlang.

A) tripanosoma      B) leyshmaniya  
C) ichburug' amyobasi      D) nozema

96. Tana shakli o'zgaruvchan bo'lgan parazitni aniqlang.

A) oddiy amyoba      B) foraminifera  
C) ichburug' amyobasi      D) tripanosoma

97. Volvoksning ta'sirlanishi qanday o'tadi?

A) hujayrasi sharsimon shaklga kiradi  
B) suvning yorug' tushib turgan tomoniga qarab harakat qiladi  
C) xivchinlarini tashlab, qalin qobiq va sista hosil qiladi  
D) tayoqchasimon tanachalarini otib chiqaradi

98. Sporalilar sinfi vakillarida qaysi organoidlar bo'lmaydi?

1) harakatlanish 2) hazm qilish 3) ayirish 4) mitoxondriya

A) 1, 2, 4      B) 1,2,3      C) 1, 3, 4      D) 2,3,4

99. Nozema hasharotlarning qaysi turkum vakillarida parazitlik qiladi ?

1) ikki qanotlilar 2) to'g'ri qanotlilar 3) tangachaqanotlilar 4) pardaqanotlilar  
A) 1, 2      B) 2, 3      C) 2, 4      D) 3, 4

100. Sodda hayvonlarning eng qadimgi ajdodini aniqlang.

A) infuzoriyalar      B) yashil xivchinlilar  
C) soxta oyoqlilar      D) sporalilar

101. Bir (a) va ikki(b) xivchinlari yordamida harakatlanadigan organizmlar ?

1) xlomidomonada, 2) volvoks, 3) ayrim bakteriyalar, 4) nozema, 5) evglena,  
6) xlorella, 7) nitella

A) a-1,3. b-4,7.    B) a-1,2,7. b-3,5.    C) a-3,5. b-1,2.    D) a-5,6.b-2,4.

### III BOB . Ko`p hujayrali hayvonlar; Bo`shliqichlilar tipi.

1. Bo`shliqichlilar tipiga kiradigan sinflarni belgilang ?  
1) gidroid poliqlar 2) sifoid meduzalar 3) kiprikli chuvalchanglar  
4) so`rg`ichlilar 5) ko`p tuklilar 6) kam tuklilar 7) tasmasimon 8) korall poliqlar 9) zuluklar 10) qorinoyoqlilar 11) ikki pallali 12) bosh oyoqlilar.  
A) 1,2,8. B) 3,4,7. C) 5,6,9. D) 10,11,12.
2. Gidraning tana bo`shlig`i qanday vazifani bajaradi ?  
A) harakatlanish. B) oziqlanish. C) ichak vazifasi. D) regeneratsiya.
3. Gidra tanasi hujayralari va ularning tuzilishini juftlab ko`rsating ?  
1) nerv 2) otuvchi 3) oraliq 4) teri-muskul 5) jinsiy a) tana devoriga botib kirgan tomoni kengaygan muskul tolalariga ega b) sezgir tukchali kapsulasi ichida otiluvchi ipchasi bor c) mayda tez bo`linadi d) xivchinli yirik amyobasimon k) shakli yuldzisimon  
A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-k. B) 1-b, 2-a, 3-c, 4-k, 5-d.  
C) 1-k, 2-b, 3-c, 4-a, 5-d. D) 1-k, 2-c, 3-b, 4-a, 5-k.
4. Gidra tutgan oziq`ining hazm bo`lish tartibini ko`rsating ?  
1) oziq tana bo`shlig`ida maydalanadi 2) paypastlagichlari oziqni yopishtirib oladi 3) oziq zarrachalari amyobasimon hujayralar tomonidan haydaladi  
4) hazm qilish vakuolasi oziqni hazm qiladi 5) hujayralarning soxta oyoqlari oziqni qamrab olib, sitoplazmaga o`tkazadi 6) oziq tana bo`shlig`iga tushadi  
A) 2,6,1,3,5,4. B) 2,5,1,3,6. C) 3,4,5,6,1. D) 1,2,3,4,5,6.
5. Quyidagi tushunchalarni va ularning ma`nosini juftlab ko`rsating ?  
1) zigota 2) tuxum 3) spermatozoid 4) regeneratsiya 5) gidra a) urug` hujayra b) ko`p boshli afsonaviy mahluq c) urg`ochi hujayra d) otalangan tuxum hujayra k) organizmning yetishmagan qismini tiklanishi  
A) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b, 5-a. B) 1-c, 2-d, 3-a, 4-k, 5-b.  
C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-k, 5-a. D) 1-d, 2-c, 3-a, 4-k, 5-b.
6. Gidra tuzilishining qaysi belgilari uni eng tuban tuzilgan ko`p hujayrali hayvon ekanligini ko`rsatadi ?  
1) hujayralari ikki qavat bo`lib joylashgan 2) otiluvchi hujayralari bo`ladi  
3) kurtaklanib ko`payadi 4) to`qima organlari rivojlanmagan 5) sezgi organlari kuchsiz rivojlangan 6) nerv hujayralari tarqoq joylashgan  
A) 1,2,3. B) 1,4,6. C) 2,5,3. D) 3,4,5,2.
7. Bo`shliqichlilar uchun umumiy bo`lgan belgilar to`g`ri keltirilgan javobni aniqlang ?  
1) ikki qavat hujayradan tashkil topgan 2) ikki tomonlama simmetriyali 3) nurli simmetriyaga ega 4) mezoderma qavati rivojlangan 5) yagona tana bo`shlig`i ichak vazifasini bajaradi 6) nerv hujayrasi tarqoq joylashgan 7) faqat suvda yashaydi 8) ayrimlari zax joylarda yashaydi  
A) 1,3,5,6,7. B) 1,2,4,6,7. C) 2,3,5,6,8. D) 8,6,1,3,4.
8. Ikki qavat hujayradan iborat hayvonni belgilang ?  
A) gidra. B) infuzoriya. C) eyzeniya. D) nereida.

9. Gidra tanasining quyidagi hujayralari qanday vazifani bajaradi ?  
 1) teri-muskul 2) otiluvchi 3) nerv 4) oraliq a) harakatlanish b) regeneratsiya  
 v) ovqat hazm qilish g) himoya d) ta'sirni qabul qilish  
 A) 1-a, 2-g, 3-v, 4-d. B) 1-a, 2-g, 3-d, 4-b.  
 C) 1-b, 2-a, 3-v, 4-d. D) 1-g, 2-d, 3-b, 4-v.
10. Qaysi hayvonlarning tanasi nurli simmetriyali bo`ladi ?  
 1) oq planariya 2) gidra 3) amyoba 4) askarida 5) ostritsa 6) meduza  
 A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 2,6
11. Gidra tanasi necha qavatdan iborat bo`ladi ?  
 A) 2 B) 1 C) 3 D) 4
12. Gidraning ektoderma uzun o`simtali hujayrasini toping ?  
 A) teri-muskul. B) otuvchi. C) jinsiy. D) nerv.
13. Gidraning qaysi qavati amyobaga o`xshash soxta oyoqlar chiqarish xususiyatiga ega ?  
 A) ektoderma, B) endoderma, C) mezoderma, D) tashqi qavat
14. Gidraning harakatlanishida muhim rol o`ynovchi hujayralarni belgilang.  
 A) xivchini, B) nerv, C) teri muskul, D) oraliq
15. Gidraning qaysi qismi tana bo`ylab bir tekis tortilgan bo`ladi ?  
 A) otiluvchi ipchalari, B) nerv o`simtasi,  
 C) tana bo`shlig`i o`simtasi, D) muskul tolalari
16. Qaysi hayvon "umbaloq oshib" va "odimlab" harakatlanadi ?  
 A) gidra, B) polip, C) aktiniya, D) volvoks
17. Gidraning otiluvchi hujayralari qanday vazifani bajaradi ?  
 A) ozuqa topishda ishtirok etadi, B) ozuqani nobud qilish, himoya,  
 C) ko`payishda ishtirok etadi, D) gidraning harakatlanishida ishtirok etadi
18. Qaysi hujayralar juda kam sonli bo`lib, gidra tanasida siyrak bo`lib joylashadi ?  
 A) muskul, B) oraliq, C) otuvchi, D) nerv
19. Quyidagilarning qaysi birida nerv hujayralari tarqoq joylashgan ?  
 A) aureliya meduzasi va aktiniya, B) gidra va oq planariya,  
 C) dengiz qisqichbaqasi va qutb meduzasi, D) xlaminomonada, gidra
20. Gidra tanasidagi yirik yadroli mayda hujayralarni aniqlang.  
 A) teri muskul, B) otiluvchi, C) nerv, D) oraliq
21. Gidraning ichki qavatidagi hujayralar ... vazifani bajaradi ?  
 A) ko`payish va qayta tiklanish,  
 B) harakat va oziqlanish,  
 C) hazm qilish va hazm shirasi ishlab chiqish  
 D) hazm qilish va rivojlanish
22. Qaysi hujayralardan gidraning boshqa hamma hujayralari hosil bo`ladi ?  
 A) teri-muskul, B) otiluvchi, C) nerv, D) oraliq
23. Gidraning regeneratsiya qobiliyatini belgilovchi hujayrani aniqlang.  
 A) teri-muskul, B) otiluvchi, C) oraliq, D) xivchinli
24. Gidra qanday usullar bilan ko`payadi ?

- A) kurtaklanish, B) spora, bo`linish,  
 C) jinsiy bo`linish, D) jinsiy kurtaklanish,
25. Gidraning tuxum hujayrasi qaysi hujayra hisobiga oziqlanib, tez ko`payadi ?  
 A) spermatozoid, B) teri-muskul,  
 C) yondosh, D) ovqat hazm qilish
26. Oraliq hujayralar gidra tanasining qaysi qismida joylashgan ?  
 A) ektoderma hujayralari orasida  
 B) ektoderma bilan endoderma oralig`ida  
 C) endoderma hujayralari orasida  
 D) bunday hujayra bo`lmaydi
27. Nerv hujayralari tanada tarqoq joylashgan organizmlar to`g`ri keltirilgan qatorni ko`rsating.  
 A) aureliya, qizil korall polipi, aktiniya  
 B) aktiniya, oq planariya, meduza  
 C) gidra, aureliya, nozema  
 D) qizil korall polipi, oq planariya, jigar qurti
28. Bo`shliqichlilarning ta`sirlanishga javob berish xususiyati qanday nomlanadi ?  
 A) refleks B) taksis C) nastiya D) transpiratsiya
29. Gidra tanasidagi otuvchi hujayralari qayerda joylashadi ?  
 A) endodermada B) mezodermada  
 C) ektodermada D) barcha qismda
30. Otuvchi hujayralar gidra tanasining qaysi qismida juda ko`p bo`ladi ?  
 A) tovonda B) paypaslagichlarida  
 C) yon tomonida D) barcha qismida teng taqsimlangan
31. Qaysi belgi faqat bo`shliqichlilar uchun xos?  
 A) uchta embrional varaq B) otuvchi hujayralar  
 C) regeneratsiya xususiyati D) uchi yopiq hazm qilish sistemasi
32. Gidraga xos bo`lmagan belgini aniqlang.  
 A) tanasi nurli simmetriyali  
 B) tana devori ikki qavat joylashgan hujayralardan iborat  
 C) tanasi ikki tomonlama simmetriyali  
 D) jinssiz va jinsiy yo`l bilan ko`payadi
33. Gidraning endoderma qavatida qanday hujayralarni farqlash mumkin ?  
 A) soxta oyoqli va otuvchi B) xivchinli va bezli  
 C) otuvchi va bezli D) oraliq, teri-muskul, jinsiy
34. Gidra tanasidagi hujayralarni bajaradigan vazifalari bilan juftlang.  
 1) teri-muskul 2) oraliq 3) bezli 4) nerv 5) otuvchi  
 a) harakatlanish b) regeneratsiya c) hazm qilish d) ta`sirlanish e) oziqni (o`ljani) falajlash  
 A) 1a; 2d; 3c; 4b; 5e B) 1d; 2e; 3c; 4a; 5b  
 C) 1a; 2b; 3c; 4d; 5e D) 1a; 2c; 3b; 4d; 5e
35. Gidra va sodda hayvonlarning qaysi jarayoni o`xshash ?

- A) faqat jinssiz yo'l bilan ko'payadi  
 B) refleks xos  
 C) tanasi ikki qavat hujayralardan iborat  
 D) oziq hujayra ichida hazm bo'ladi
36. Hidra tanasidagi oraliq hujayralarga xos belgini aniqlang.  
 A) yirik yadroli B) mayda  
 C) regeneratsiyada qatnashadi D) barcha javoblar to'g'ri
37. Bo'shliqichlilar tanasidagi oraliq hujayralarga xos bo'lmagan belgilar keltirilgan qatorni aniqlang.  
 A) yirik, mayda yadroli, endoderma qavatida joylashadi  
 B) mayda, yirik yadroli, ektoderma qavatida joylashadi  
 C) regeneratsiyani ta'minlaydi  
 D) ektoderma qavatida joylashgan, regeneratsiyani ta'minlaydigan yirik yadroli
38. Gidraning jinsiy hujayralari qachon hosil boiadi ?  
 A) bahorda B) yozda C) kuzda D) qishda
39. Hidra tuxum hujayrasida ... bo'ladi.  
 A) soxta oyoqlari B) xivchinlar  
 C) kipriklar D) tukchalar, tikanlar
40. Korall poliplarning aktiniyaga o'xshash (a) va farq qiluvchi (b) belgilari ?  
 1) tanasi 2 qavat bo'lib joylashgan hujayralardan iborat, 2) qattiq skeletli, 3) koloniya hosil qiladi, 4) urug'langan tuxum hujayradan lichinka chiqadi, 5) lichinka polipga aylanadi, 6) kurtaklanib ko'payganda yosh polip ona tanasidan ajralib ketmaydi  
 A) a-1,4,6, b-2,3,5, B) a-1,4,5, b-2,3,6,  
 C) a-1,3,4, b-2,5,6, D) a-2,3,6, b-1,4,6
41. Dengiz bo'shliqichlilari va ularning hayot kechirish tarzini juftlab ko'rsating ?  
 1) meduzalar 2) korall poliplar 3) aktiniyalar.  
 a) o'troq yakka yashaydi b) erkin suzib yuradi c) koloniya bo'lib yashaydi.  
 A) 1-a, 2-b, 3-c. B) 1-b, 2-a, 3-c. C) 1-b, 2-c, 3-a. D) 1-c, 2-b, 3-a.
42. Poliplar – bu bo'shliqichlilar ...?  
 A) erkin yashaydigan. B) tuban tuzilgan.  
 C) yopishib yashaydi. D) barcha javob to'g'ri.
43. Tana simmetriyasi nima ?  
 A) tana qismlari bitta o'q atrofida o'zaro mutanosib joylashuvi.  
 B) hayvonlar tanasi bitta o'q chiziqdan chiquvchi nurlar bo'yicha o'zaro mos keladigan teng qismlardan bo'lishi radial.  
 C) hayvon tanasining har ikki qismi teng bo'lsa.  
 D) hayvon tanasining har ikki qismi har xil bo'lsa.
44. Aktiniyalarning tuzilishi va hayot kechirish xususiyatlarini ko'rsating ?  
 1) shakli meduzaga o'xshash 2) tuzilishi gidraga o'xshash 3) paypastlagichlari og'iz atrofida bir necha qator 4) paypastlagichlari og'iz atrofida bir qator 5) suv tubida yopishib yashaydi 6) shakli gidraga o'xshash 7) o'ljasini otuvchi iplari bilan jarohatlaydi.

A) 2,3,5,6,7. B) 1,3,5,6,7. C) 1,4,5,6,7. D) 4,1,3,5,6,7.

45. Korall poliplar koloniyasidan riflar qanday hosil bo`ladi ?

1) koloniya suv yuziga qarab to`xtovsiz o`sadi 2) koloniya suv tubiga cho`kadi  
3) dengiz tubiga cho`kadi 4) koloniyaning dengiz tubidagi qismi halok bo`ladi  
5) koloniya tez o`sadi 6) koloniya uzoq yillar davomida sekin-asta o`sadi  
7) dengiz to`lqinlari koloniyani yuvib turadi 8) dengiz tubiga ko`tariladi.

A) 1,3,4,6. B) 1,2,3,4. C) 4,6,8,1. D) 3,2,1,7.

46. Korall riflar qayerda keng tarqalgan ?

1) tropik dengizda 2) iliq suvda 3) sohildan uzoqda 4) sohil yaqinida 5) sayoz  
joylarda 6) chuqur joylarda 7) ochiq dengizlarda 8) sohilda

A) 1,3,4. B) 5,7,8. C) 1,4,5. D) 1,2,3.

47. Korall riflari qanday amaliy ahamiyatga ega ?

1) o`g`it bo`ladi 2) qurulishda foydalaniladi 3) zebu-ziynat buyumlari  
117. Asalarilarning ko'zi nechta va qanday ko'z ?  
 A) 1 juft oddiy. B) 2 juft murakkab.  
 C) 2 ta murakkab, 3 ta oddiy ko'z. D) 1 juft murakkab ko'z.
118. Ham oddiy, ham murakkab ko'zga ega bo'lgan hasharotni belgilang.  
 A) tut ipak qurti B) temirchak  
 C) asalari D) qandala
119. Chumolining og'iz apparati...  
 A) yalovchi B) kemiruvchi C) kemiruvchi-yalovchi D) chaquvchi
120. Ishchi asalarining murakkab (I) va oddiy (II) ko'zchalarining soni to'g'ri berilgan javobni toping.  
 A) I-1ta; II-2ta B) I - 2 ta; II - 2 ta  
 C) I-2ta; II-3ta D) I - 2 ta; II- 4 ta
121. Ishchi arilar qaysi organlari yordamida gul changini yig'ib oladi ?  
 A) orqa oyoqlaridagi maxsus savatcha va tukchalar.  
 B) old oyoqlaridagi maxsus savatcha va tukchalar.  
 C) ko'krakdagi maxsus savatcha.  
 D) old oyoqdagi tukchalar, orqa oyoqlar.
122. Erkak arilarning qaysi sezgi organlari kuchli rivojlangan ?  
 A) hid bilish, ko'rish. B) hid bilish, eshitish.  
 C) ko'rish, tam bilish. D) sezgi organlari rivojlanmagan
123. Pardaqanotlilardan qaysi birining qanotlari rivojlanmagan ?  
 A) paxmoq ari. B) erkak chumoli.  
 C) ishchi chumoli. D) yaydoqchi.
124. Qaysi hasharotdan biologik kurash maqsadida foydalaniladi ?  
 A) yaydoqchi. B) sariq o'rmon chumolisi.  
 C) fir'avn chumoli. D) qorabog` chumoli.
125. Qo'sh qanotlilarning keyingi qanotlari nima vazifani bajaradi ?  
 A) uchish uchun.  
 B) trاملen.  
 C) tanani mustahkam ushlab uchun.  
 D) uchganda muvozanatni saqlaydi, ayrimlarida ovoz chiqarish.
126. Ikki qanotlilarning qancha turi ma'lum ?  
 A) 150000. B) 15000. C) 8000. D) 9000.
127. Ikki qanotlilar turkumiga mansub hasharotlarni aniqlang.  
 A) iskabtopar, so'na, bo'ka B) iskabtopar, chivin, asalari  
 C) yaydoqchi, chumoli, qovoqari D) uy pashshasi, xonqizi, buzoqboshi
128. Chivinning og'iz apparati qanaqa tipda ?  
 A) yalovchi. B) yalovchi, so'ruvchi.  
 C) so'ruvchi. D) sanchib- so'ruvchi.

129. Uy pashasi oziq ta`mini qaysi organi orqali sezadi ?  
 A) og`zi.  
 B) og`zi atrofida joylashgan tukchalar yordamida.  
 C) mo`ylovlari.  
 D) oldingi oyoqlari panjasida joylashgan tukchalar.
130. Uy pashasi qurti qayerda rivojlanadi ?  
 A) tuproqda.  
 B) balchiqda.  
 C) sasiydigan go`shtda.  
 D) axlat to`kilgan joylarda, hojatxonalarda, hayvonlar go`ngida.
131. Uy pashshasining qurtlari qayerda g`umbakka aylanadi ?  
 A) oziq-ovqat mahsulotlar. B) azotga boy suvlar.  
 C) tuproq. D) daraxt po`stloqlarida.
132. Qaysi hasharot qurtining boshi, oyog`i bo`lmaydi ?  
 A) molluskaning. B) askaridaning. C) uy pashasining D) chivinning.
133. Bitta urg`ochi chivinning avlodi bir mavsumda qanchaga yetadi ?  
 A) 100000. B) 200000. C) bir trillion. D) 5 000000000
134. Uy pashasi qanday kasalliklarni tarqatadi ?  
 A) qorin tifi, vabo, bo`g`ma, gijja.  
 B) sarg`ayma, sil, qoqshol.  
 C) difteriya, poleomelit, tif, chechak.  
 D) tif, vabo, o`tkir pankreatit, kolit.
135. So`nalar qayerda yashaydi, nima bilan oziqlanadi ?  
 A) cho`l mintaqalarida ko`proq uchraydi, qon bilan.  
 B) namlik yuqori bo`lgan yerlarda yashaydi, qoramollarning qoni bilan.  
 C) qoramollarning terisi ostida, qon bilan.  
 D) qo`y, echkilar terisi ostida, yo`g` bilan
136. Qaysi hasharot qoramollarning terisi ostida yashab yara hosil qiladi ?  
 A) so`na. B) bo`ka. C) kana. D) yashil go`sht chivini.
137. Qo`ylarning burun bo`shlig`ida parazitlik qilib yashovchi hasharotlar ?  
 A) so`na. B) kana. C) go`sht chivini. D) qo`y bo`kasi.
138. Ot bo`kasining lichinkasi qayerda yashaydi ?  
 A) qoramollarning terisi ostida B) otning burnida.  
 C) qo`yning oshqozonida D) otning oshqozonida.
139. Pashshaning og`iz apparati qanaqa ?  
 A) sanchib- so`ruvchi. B) so`ruvchi, yalovch  
 C) so`ruvchi. D) yalovchi.
140. Erkak chivinlar nima bilan oziqlanadi ?  
 A) qon bilan. B) nektar bilan.  
 C) o`simlik shirasi. D) mayda hasharotlar.
141. Chivinning qurtlari qayerda rivojlanadi ?  
 A) organik moddalarga boy bo`lgan hovuz va ko`lmak suvlarda.  
 B) suvda o`simlik qoldiqlari, turli mayda organizmlar bilan.

C) qon bilan.

D) oziqlanmaydi.

142. Olma mevaxo`rning rivojlanish sikli ketma-ketlik bilan berilgan qatorni belgilang ?

A) kapalak, zararlangan olma qurti g`umbagi, po`stloq ustidagi g`umbak, po`stloq ostidagi kapalak.

B) qurt, olma, tashqi muhit, daraxt po`stlog`i, kapalak.

C) tuxum, lichinka, olma, tashqi muhit, daraxt ildizi.

D) kapalak, olma, tuxum, lichinka, g`umbak, kapalak.

143. Hasharotlar sinfi uchun xos xususiyatlarni aniqlang ?

1) hasharotlar tanasi 3 bo`limdan iborat 2) boshida bir juftdan oddiy va murakkab ko`zlar bor 3) boshida ko`zlarining soni turlicha, bir juft murakkab 3 ta oddiy(asalarida), ko`pchiligida bir juft murakkab ko`z 4) 4 juft oyoqlari bor 5) 3 juft oyoqlari bor 6) ko`pchilik turlarida ikki juft qanotlari bor 7) traxeyalar orqali nafas oladi 8) ayirish organi malpigi naychalaridan iborat 9) chala o`zgarish bilan rivojlanadi 10) to`la o`zgarish bilan rivojlanadi.

A) 1,2,4,5,7,8,9,10.

B) 1,4,5,7,6,8,10.

C) 1,2,3,5,6,7,8,9,10.

D) 1,3,5,6,7,8,9,10.

144. Bo`g`imoyoqlilar tipi uchun xos umumiy xususiyatlar qaysi qatorda berilgan ?

1) tanasi maxsus organik moddadan iborat qattiq xitin po`st bilan qoplangan 2) xitin po`st yurish oyoqlari va boshqa tana a`zolari uchun tayanch bo`lib xizmat qiladi 3) tanasi 2 qismdan iborat 4) tanasi 3 qismdan iborat 5) po`st tashlash bilan o`sadi 6) ko`zlari oddiy 7) ko`zlari oddiy va murakkab 8) turlarining soni 2 mln ga yaqin 9) turlarining soni 1,4 mln

A) 1,2,4,5,7,8.

B) 1,2,3,5,6,7,4

C) 1,2,4,5,6,8,9.

D) 1,4,2,6,8.

145. Og`iz apparati kemiruvchi tipda bo`lgan hasharotlar guruhini aniqlang ?

1) qo`ng`iz 2) karam kapalagi 3) uy pashshasi 4) chigirtka 5) asalari

6) beshiktevratar

A) 1,3,6.

B) 2,4,5.

C) 1,2,3.

D) 1,4,6.

146. Gabrobrakon qaysi hasharotlar turkumiga kiradi ?

A) qo`shqanotlilar.

B) qattiq qandalilar.

C) to`g`ri qanotlilar.

D) parda qanotlilar

147. Qaysi hayvonlarning urg`ochisida bir juft tuxumdon, erkagida bir juft urug`don bo`ladi ?

A) hasharotlarda.

B) kovakichlilarda.

C) to`garak chuvalchanglarda.

D) baliqlar.

148. Quyida berilgan hasharotlar qaysi turkumga mansub ekanligini aniqlang ?

1) tut ipak qurti 2) so`na 3) yaydoqchi 4) xonqizi a) qattiq qanotlilar

b) tangachaqanotlilar g) qo`shqanotlilar d) parda qanotlilar

A) 1-a, 2-b, 3-g, 4-d.

B) 1-b, 2-g, 3-d, 4-a.

C) 1-g, 2-d, 3-a, 4-b.

D) 1-d, 2-g, 3-b, 4-a.

149. Iskabtoparlar qaysi hasharotlar turkumiga xos?



## VIII BOB. Xordalilar tipi. 8.1.Lansetnik.

1. Xordalilar tipi qancha turni o`z ichiga oladi ?  
A) 4000.      B) 40000.      C) 43000.      D) 53000.
2. Bosh skeletsizlar kenja tipi uchun xarakterli xususiyatlar berilgan qatorni belgilang ?  
1) bosh miya va bosh skeleti rivojlanmagan    2) bosh miyasi bor, bosh skeleti yo`q    3) xorda skeleti hayoti davomida saqlanib qoladi    4) bosh skeletsizlar kenja tipiga ikki sinf kiradi: chuvalchanglar va lansetniklar sinfi    5) bosh skeletsiz kenja tipiga bitta sinf kiradi    6) bosh skeletlilarga xorda ichki a`zolar uchun tayanch vazifasini bajaradi  
A) 1,3,4,5,6.    B) 1,2,4,6    C) 1,3,5,6.    D) 1,4,5,6.
3. Lansetniklar yashash muhiti va tashqi tuzilishi uchun xos bo`lgan xususiyatlarni aniqlang ?  
1) lansetnik sekin oqar suvlarda, hovuzlar tubida, ariqlar va kanallarda yashaydi  
2) lansetnik tropik va mo`tadil iqlimli dengiz tubida hayotining ko`p qismini qumga ko`milgan holda o`tkazadi    3) och pushti rangli shaffof tanasining uzunligi 4-8 sm    4) dum suzgich jarrohlik asbobi lansetga o`xshagani uchun bu hayvon shu nomni olgan    5) lansetnik suvda aktiv hayot kechiruvchi hammaxo`r hayvon    6) qumdan lansetnikning faqat oldingi og`iz tomoni chiqib turadi    7) og`iz teshigi 10-20 juft paypaslagichlar bilan o`raglan  
A) 1,2,4,5,6,7.    B) 1,3,4,5.    C) 4,5,6,2,7.    D) 2,3,4,6,7.
4. Xorda lansetnikning qayerida joylashgan va u nima vazifani bajaradi ?  
A) Tanasining old tomonida, oziqlanish.  
B) Tanasining o`rtasida bo`lib, tayanch vazifasini bajaradi.  
C) Tanasining orqa tomoni bo`ylab o`tgan pishiq o`qdan iborat, ichki a`zolarga tayanch vazifasini o`taydi, tanasi egiluvchan bo`lib turadi.  
D) Umurtqa pog`onasi vazifasini bajaradi, tayanch funksiyasini bajaradi, tanasini egiluvchan qilib turadi.
5. Qaysi hayvonning muskullari ikki yon tomonda tana bo`ylab uzun tasma shaklida joylashgan .  
A) lansetnik, daryo qisqichbaqasi.      B) yomg`ir chuvalchangi, lansetnik.  
C) askarida      D) lansetnik.
6. Lansetnik qanday harakatlanadi ?  
A) baliq singari.  
B) ilon singari.  
C) kiprikli chuvalchanglar singari.  
D) tanasini u yoki bu yonga egib suzib yuradi, yoki qumni yorib kirib oladi.
7. Lansetnikning hazm qilish sistemasi uchun eng ma`qul va aniq javobni tanlang ?  
A) og`iz teshigi, paypaslagichlar harakati, halqum, shilimshiq ichak, orqa chiqaruv teshigi.

B) og`izdan boshlanadi, halqum, qizilo`ngach, yo`g`on va ingichka ichak, anal teshigi bilan tugaydi.

C) og`izda og`iz oldi paypaslagichlari yordamida suv haydaladi, juda mayda plankton organizmlar suv oqimi bilan og`iz orqali halqumga o`tadi, halqum atrofidagi shilimshiq bilan bir-biriga yopishib luqmalar holida ichakka tushib hazm bo`ladi, hazm bo`lmagan oziq orqa chiqaruv teshigi orqali chiqarib yuboriladi.

D) og`iz-halqum-oshqozon-ichak-anal.

8. Lansetnikda gazlar almashinuvi qayerda kechadi ?

A) terida.

B) o`pkada.

C) jabrada.

D) halqumning ikki yonida juda ko`p jabra teshiklari bo`lib, ularda juda ko`p mayda qon tomirlari bo`ladi: qon bilan suv o`rtasida.

9. Lansetnikning qon aylanish sistemasini uchun xos bo`lgan to`g`ri javobni belgilang ?

A) yopiq karbonat angidridga to`yingan qon qorin qon tomiri bo`ylab oldinga, jabraga, so`ng orqa qon tomiriga yana qaytib, qorin qon tomiri bo`ylab oldinga, yurak yo`q.

B) ochiq halqum atrofidagi qon tomirining kengaygan ikki qismidan qon butun tanaga haydaladi.

C) yurak-yelka qon tomiri-qorin qon tomiri-jabra-yurak.

D) yurak yo`q, yurak vazifasini yirik tomirlar devori bajaradi qon aylanish doirasi ochiq.

10. Lansetnikning ayirish sistemasini qaysi organ bajaradi ?

A) sirtmoqqa o`xshash buralgan uzun naychalar.

B) 1 juft yashil bezlar.

C) teri, ichak, jabra, lichinkalar.

D) halqali chuvalchaglarniki singari naychalardan iborat, lekin naychalar halqum bo`ylab jabra oldi bo`shlig`iga ochiladi.

11. Lansetnikning nerv sistemasini nima tashkil etadi ?

A) halqumosti, halqumusti nerv tuguni, qorin nerv zanjiri.

B) xorda ustida joylashgan nerv tuguni.

C) xorda ustida joylashgan nerv nayi.

D) nerv nayidan ketgan nervlar, yorug`lik sezuvchi hujayralar.

12. Lansetnikda ko`rish vazifasini nima bajaradi ?

A) ko`zi.

B) nerv nayi bo`ylab bir tekis joylashgan yorug`lik sezuvchi hujayralar.

C) teri ustidagi sezuvchi hujayralar.

D) bir juft ko`rish do`mboqchasi.

13. Lansetnik kim tomonidan kashf etilgan ?

A) A.Botkin.

B) A.Levenguk.

C) . B.O. Kovalevskiy

D) A.O. Kovalevskiy.

14. Lansetnik haqiqiy xordalilardan qaysi belgilari bilan farq qiladi ?
- A) xordasi bilan.  
 B) jabrasining tuzilishi bilan.  
 C) xordaning butun hayoti davomida saqlanishi bilan.  
 D) ayirish sistemasi, muskullarining tuzilishi, yuragi, bosh miyasining bo`lmasligi.
15. Xordalilar qanday kenja tiplarga bo`linadi ?
- A) bosh skeletsizlar, haqiqiy xordalilar. B) bosh skeletsizlar, umurtqalilar.  
 C) umurtqasizlar, umurtqalilar. D) suyaklilar, suyaksizlar.
16. Lansetnikka o'xshash tuban xordalilar ... kelib chiqqan.
- A) eng qadimgi tuban halqali chuvalchaglardan  
 B) kiprikli chuvalchaglardan  
 C) molluskalardan  
 D) bo'g'imoyoqlilardan
17. Xordalilar tipiga kiradigan sinflar ketma-ketligini toping ?
- A) sut emizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar, suvda ham quruqlikda ham yashovchilar, baliqlar, lansetniklar.  
 B) lansetniklar, sudralib yuruvchilar, baliqlar, suvda ham quruqlikda ham yashovchilar, qushlar, sut emizuvchilar.  
 C) baliqlar, suvda ham quruqlikda ham yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar, lansetniklar.  
 D) lansetniklar, tog`ayli baliqlar, suyakli baliqlar, suvda ham quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar.
18. Qaysi xordalilar bosh skeletsiz hisoblanadi ?
- A) lansetnik. B) baliqlar.  
 C) suvda ham quruqlikda ham yashovchilar. D) sudralib yuruvchilar.
19. Lansetnik og`iz teshigi necha juft paypastlagichlar bilan o`raglan bo`ladi ?
- A) 10-20. B) 5-10. C) 1-2. D) 4-5.
20. Lansetnikning ichki skeleti nima hisoblanadi ?
- A) xitin qoplami. B) xorda. C) umurtqa. D) kutikula.
40. Yomg`ir chuvalchangi (I) va lansetnik (II) ning qorin (a) va orqa (b) qon tomirlari orqali qon tananing qaysi qismiga qarab harakatlanadi ?
- 1) tananing oldingi qismida 2) tananing orqa qismiga.  
 A) I- a-1. b-2, II-a-1. b-2. B) I- a-1. b-2, II-a-2, b-1.  
 C) I- a-2, b-1, II-a-1, b-2. D) I-a-2, b-1, II-a-2, b-1.
22. Lansetnikda qaysi organlar bo`lmaydi ?
- 1) jabra 2) yurak 3) ichak 4) ko`z 5) bosh miya 6) halqum 7) ayirish sistemasi 8) eshitish organi 9) nerv sistemasi  
 A) 1,2,6,9. B) 2,4,5,8. C) 6,9,4,2. D) 7,8,9,1.
23. Lansetnikning ovqat hazm qilish sistemasi qaysi organlardan tashkil topgan ?
- 1) og`iz 2) halqum 3) qizilo`ngach 4) oshqozon 5) ichak 6) kloaka 7) anal teshigi  
 A) 1,2,5,6. B) 1,3,5,6. C) 1,3,4,7. D) 1,2,5,7.

24. Lansetnik ovqat hazm qilish sistemasining qaysi qismida oziq shilimshiq modda bilan kichik luqmalar hosil qiladi ?  
 A) qizilo`ngach. B) halqum. C) oshqozon. D) ingichka ichak.
25. Lansetnikning tanasi nima orqali kislorod bilan ta`minlanadi ?  
 A) teri. B) jabra. C) o`pka. D) teri, jabra.
26. Xordaliar tipining yuragi bo`lmaydigan vakili ?  
 A) lansetnik. B) ostyort. C) triton. D) salamandra.
27. Lansetnikning qon aylanish sistemasi qanday va nechta qon aylanish doirasidan iborat ?  
 A) yopiq, 2 ta qon aylanish doirasi. B) yopiq, 3 ta qon aylanish doirasi.  
 C) ochiq, 1 ta qon aylanish doirasi. D) yopiq, 1 ta qon aylanish doirasi.
28. Lansetnikda venoz qon qaysi qon tomiri orqali jabraga oqadi ?  
 A) qorin qon tomiri. B) orqa qon tomiri.  
 C) halqasimon kapillar. D) aorta qon tomiri
29. Lansetnik jabralari ... bilan qoplangan ?  
 A) paypastlagichlar. B) ko`krak qoplami.  
 C) yaproqchalar. D) teri burmalari.
30. Umurtqali hayvonlar nechta sinfga bo`linadi ?  
 A) 6 B) 4. C) 5 D) 3.
31. Qaysi hayvonning ayirish sistemasi halqali chuvalchaglarnikiga o`xshaydi, ammo halqum bo`ylab joylashib, jabra yonidagi bo`shliqqa ochiladi ?  
 A) midiya. B) lansetnik. C) tok shillig`i. D) bitiniya.
32. Lansetnikning ayirish sistemasi tananing qaysi qismida joylashgan ?  
 A) tana bo`ylab. B) boshida. C) halqum bo`ylab. D) qorin bo`ylab.
33. Lansetnikning ayirish organi vazifasini nima bajaradi ?  
 A) buyrak. B) yashil bezlar.  
 C) yog` tanachalari. D) ayirish naychalari.
34. Lansetnikning tanasining qaysi qismi burmali teri bilan qoplangan ?  
 1) dum suzgichi, 2) og`iz oldi voronkasi, 3) anal teshigi, 4) jabra teshiklari,  
 A) faqat 4, B) 1,2, C) 3, D) 1,4
35. Qaysi hayvonda ko`rish va eshitish organi bo`lmaydi ?  
 A) mokrisa. B) arrakash. C) lansetnik. D) baliq.
36. Lansetnik tuzilishining qaysi xususiyatlari umurtqasizlarga o`xshaydi ?  
 1) naysimon nerv sistemasi 2) yuragining bo`lmasligi 3) xordaning bo`lishi  
 4) bosh miyaning bo`lmasligi 5) bosh miyaning borligi 6) ayirish sistemasi  
 7) muskulining tuzilishi  
 A) 1,2,3,4. B) 2,3,4,6. C) 3,4,6,7. D) 2,4,6,7.
37. Lansetnikning asosan qaysi belgilariga ko`ra xordali hayvonlar guruhiga kiritilganligini belgilang ?  
 A) jabra yoriqlari, tana bo`shlig`i.  
 B) qon aylanish sistemasi, nerv sistemasi.  
 C) xorda, nerv sistemasi.  
 D) ayirish sistemasi, ovqat hazm qilish sistemasi.

38. Bitta yopiq qon aylanish doirasiga ega bo'lgan organizmlarni ko'rsating.  
 1) lansetnik 2) bo'rtma nematoda 3) iskabtopar 4) kulrang satir 5) podalariy  
 6) o'troq dengiz ko'p tukli chuvalchangi  
 A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 6 C) 1,6 D) 3, 4, 5
39. Quyidagilardan lansetnikka xos bo'lmagan belgilarni tanlang.  
 a) bosh miya va bosh qutisi bo'lmaydi b) bosh miya va bosh qutisi bo'ladi c)  
 xorda faqat lichinka davrida bo'ladi d) xorda umr bo'yi saqlanadi e) yuragi  
 bo'ladi f) nerv nayi xorda ustida joylashadi j) yuragi bo'lmaydi  
 A) a, d, f, j B) a, c, f, j C) b, d, f D) b, c, e

## 8.2. Baliqlar .

1. Zog`ora baliq qayerda yashaydi ?  
 A) Amudaryo, Sirdaryo.  
 B) Zarafshon va Sirdaryoda.  
 C) Norin, Ugom ko`llarida.  
 D) tog` daryolaridan boshqa barcha suv havzalarida.
2. Zog`ora baliqning kattaligi qanchagacha bo`ladi ?  
 A) 60-65sm, 6-7kg. B) 60-65sm, 8-9kg.  
 C) 80 sm gacha, 10-12kg. D) 1metr gacha,8-16kg.
3. Baliqlar tanasining suyri shaklda bo`lishi baliqlar hayotida qanday o`rin tutadi ?  
 A) hech qanday ahamiyati yo`q, bu yashash muhitiga moslashishning 1 turi xolos.  
 B) baliqlar tanasining qanday bo`lishi baliqlar uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, chunki bizga ma`lumki, bir qancha baliqlar tanasi yassi (ost va ust tomonidan), ba`zilari (xumbosh) tanasining oldingi qismi yo`g`onlashgan.  
 C) suvning qarshiligini yengib tez harakatlanishga yordam beradi.  
 D) suv tubiga tushish va chiqishni osonlashtiradi.
4. Baliqlarning juft suzgich qanotlari qanday ahamiyatga ega ?  
 A) muvozanatni saqlash, burilish.  
 B) orqaga suzish, to`xtash.  
 C) harakatni to`xtatish, tanani muallaq saqlash.  
 D) burilish, to`xtash, harakat, muvozanat saqlash.
5. Baliqlarning burun teshigi qayerga ochiladi ?  
 A) burun bo`shlig`iga.  
 B) burun halqumga.  
 C) havo o`tkazuvchi yo`llarga.  
 D) hid sezuvchi hujayralari bo`lgan xaltachalarga.
6. Zog`ora baliqning umurtqa pog`onasi nechta umurtqadan iborat ?  
 A) 39-42. B) 38-41. C) 40-43. D) 41-44.
7. Baliqlardagi suzgich pufagining asosiy vazifasini ko`rsating ?  
 A) gaz almashinish. B) suv tubiga botish va yuzaga chiqish.

- C) ovqat hazm qilish. D) ajratish.
8. Baliqlarda qaysi organ rezanator vazifasini bajaradi ?  
 A) suzgich pufagi. B) muskullar. C) jabrasi. D) teri tangachalari.
9. Zog`ora baliqning bosh qismida qanday organlar bor ?  
 1) 1 juft murakkab ko`zlari 2) 1 juft mo`ylovlari 3) 1 juft oddiy ko`zlari  
 4) og`iz teshigi 5) 1 juft burun teshigi 6) boshining 2 yonida jabra qopqog`i  
 7) 1 juft qovoqli ko`zlar 8) 1 juft qovoqsiz oddiy ko`zlar 9) jabra plastinkalari  
 10) mayda tishchalar 11) yuqorigi va pastki jag`  
 A) 1,3,6,9,10,11. B) 1,4,5,7,8,10,11.  
 C) 2,3,4,5,6,8,9,10,11. D) 2,3,4,5,6,7,10,11.
10. Ko`r bo`lib qolgan baliqning biror narsaga urilmasligida qaysi a`zosi asosiy rol o`ynaydi ?  
 A) yon chiziqdari. B) orqa miya. C) jabra. D) refleks.
11. Baliqlarning suzgich pufagi puchayganda gazlarning suvga chiqish jarayoni ketma-ketligini ko`rsating ?  
 A) pufak-ichak-ingichka nay-jabra-suv.  
 B) pufak-ichak-ingichka nay-og`iz-suv.  
 C) pufak-ingichka nay-ichak-og`iz-jabra-suv.  
 D) pufak-ingichka nay-ichak-jabra-suv.
12. Baliqning suzgich pufagi kengayganda nima bilan to`ladi ?  
 A) jabradan kelgan havo. B) qondan ajralgan gaz.  
 C) og`izdan o`tgan havo. D) teri orqali o`tgan havo.
13. Baliqlarning suzgich pufagi qanday qon tomirlari bilan qoplangan ?  
 A) arteriya. B) vena. C) kapillar. D) arteriya, vena.
14. Zog`ora baliqning hazm qilish tizimi a`zolarini belgilang ?  
 1) og`iz 2) ichak 3) kloaka 4) halqum 5) qizilo`ngach 6) oshqozon  
 A) 5,1,4,2. B) 6,2,5,1,4. C) 1,3,6,5,2. D) 1,5,2,6.
15. Baliqlarning qon aylanish sistemasi qanday qismlardan iborat ?  
 1) jabra 2) yurak 3) aorta 4) muskul 5) arteriya 6) vena 7) kapillar  
 A) 1,2,3,4,5. B) 2,3,5,6,7. C) 2,3,1,5,7. D) 2,3,4,1,5.
16. Yuragi ikki kamerali bo`lgan hayvonlar guruhini belgilang ?  
 1) skat 2) baqa 3) qurbaqa 4) qirg`ovul 5) chumchuq 6) akula  
 7) kit 8) manta 9) triton  
 A) 1,6,8. B) 2,3,9. C) 4,5,7. D) 1,2,4.
17. Baliqlarning yurak qorinchasi qisqarishi natijasida qon qaysi a`zoga boradi ?  
 A) qorin aortasiga. B) orqa aortaga.  
 C) yelka aortasiga. D) bosh arteriyasiga.
18. Baliqning yurak qorinchasidan chiqadigan qon qanday izchillikda oqib yurak bo`lmasiga kelib quyiladi ?  
 1) orqa aorta 2) qorin aorta 3) jabra arteriya 4) kapillar 5) vena 6) arteriya.  
 A) 1,2,3,4,5,6. B) 2,3,4,1,6,4,5. C) 1,3,4,5,6,2,4. D) 2,5,4,6,2,1,3.
19. Yuragida faqat venoz qon bo`lgan hayvonlar guruhini belgilang ?  
 A) delfin, sazan, akula. B) kit, okun, karp.

- C) baqa, osetr, sazan. D) skat, osetr, seld.
20. Baliqning yuragi orqali qanday qon oqadi ?  
 A) aralash. B) arteriya. C) vena. D) kislorodli.
21. Baliqlarda jabradan chiqqan arteriya qon tomiri qaysi qon tomiriga boradi ?  
 A) qorin aortaga. B) orqa aortaga.  
 C) jabra atrofidagi kapillarlariga. D) jabra arteriyasiga.
22. Baliqlar turi bilan ularning nasliga g'amxo'rlik qilish instinktini juftlab bering.  
 1) tilyapiya 2) tikan baliq 3) Amerika som balig'i 4) dengiz otchasi 5) treska  
 a) erkagi uya yasaydi b) erkagi tuxumlarni qorniga yopishtirib oladi c) g'amxo'rlik qilmaydi d) erkagi tuxumlarni xaltasida olib yuradi e) erkagi tuxumlarni og'zida olib yuradi  
 A) 1c,2d,3b,4a,5e B) 1d,2b,3c,4e,5a  
 C) 1e,2a,3c,4d,5b D) 1e,2a,3b,4d,5c
23. Baliqning oldinga tomon suzishida qaysi suzgichlarining ahamiyati katta ?  
 A) qorin suzgichi. B) ko`krak suzgichi.  
 C) dum suzgichi. D) yelka va qorin.
24. Baliqlar tanasini muvozanatga solib turish, harakatlanayotganda burilishni va to`xtashni, oldinga qarab asta-sekin suzishni qaysi suzgichlari bajaradi ?  
 A) dum suzgichlari. B) toq suzgichlari.  
 C) juft suzgichlari. D) qorin suzgichlari.
25. Zog`ora baliq tanasi nima bilan qoplangan ?  
 A) teri.  
 B) tangacha.  
 C) ba`zilarida teri qattiq xitin, ba`zilarida tangacha.  
 D) teri usti tangachalar, ter bezlari, yupqa shilliq parda.
26. Zog`ora baliq tanasining rangi qanday bo`ladi ?  
 A) ochiq ko`k.  
 B) to`q ko`kish.  
 C) suv tubi rangida.  
 D) orqa tomoni balchiq rangida, qorin tomoni oqish bo`ladi, atrof muhit rangiga qarab o`zgarib turishi mumkin.
27. Zog`ora baliqning asosiy suyaklari tartib bilan berilgan qatorni aniqlang ?  
 1) bosh qutisi 2) ko`z kosasi 3) jabra qopqog'i 4) orqa suzgich 5) umurtqa pog`onasi 6) anal suzgichi 7) ko`krak suzgichi 8) qorin suzgichi 9) dum suzgichi 10) qovurg`alar 11) yuqorigi va pastki jag`  
 A) 1,3,7,5,8 B) 1,2,4,5,6,8,10.  
 C) 1,5,6,7,9,11. D) 1,11,2,3,5,10,7,8,4,9.
28. Baliq skeleti asosini qaysi suyak tashkil etadi ?  
 A) suzgich suyaklari. B) miya qutisi.  
 C) umurtqa pog`onasi. D) bosh va dum suyaklari.
29. Faqat baliqlar berilgan javobni toping.  
 A) akula, kit B) delfin, gidmoy



- 7) "sut" tarkibida tuxum hujayralar bo`ladi 8) "sut" tarkibida millionlab spermatozoidlar bo`ladi 9) yetilgan tuxum yoki urug` hujayralari qorin tomonida joylashgan maxsus jinsiy teshik orqali suvga chiqariladi 10) urug`lanish ichki 11) urug`lanish tashqi
- A) 1,2,3,4,5,7,9,10,11. B) 1,2,3,4,5,6,9,10.  
C) 2,4,6,8,10,11. D) 1,2,3,5,8,9,11.
40. Zog`ora baliq tuxumlarini qayerga qo`yadi, qanday urug`lanadi ?
- A) maxsus urug` yo`lida.  
B) suvda.  
C) suv omborlari, ko`llarda tinch oqadigan sayoz joylarga qo`yadi, urg`ochi baliq suv o`simliklari yoki ularning qoldiqlari ustiga uvildiriq tashlaydi. Erkagi esa tuxumlar ustiga "sut"ini sepib ketadi.  
D) barcha javoblar to`g`ri.
41. Zog'ora baliq boshida qaysi suyak bo'lmaydi ?
- A) miya qopqog'i B) dimog` C) jag` D) jabra yoriqlari
42. Baliqlar qon aylanish sistemasining tarkibiy qismlarini ko'rsating.
- 1) ikki kamerali yurak 2) uch kamerali yurak 3) ikkita qon aylanish doirasi 4) bitta qon aylanish doirasi 5) kapillyar 6) venalar 7) arteriyalar
- A) 2, 3, 5, 6, 7 B) 1, 4, 5, 6, 7 C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 4, 6, 7
43. Baliqning ayirish sistemasi qanday tuzilgan ?
- A) loviyasimon buyraklar, siydik pufagi  
B) 2 ta tasmaimon buyrak, siydik pufagi  
C) jabra oldi bo`shlig`idagi naychalar  
D) 4 ta tasmaimon buyrak, siydik pufagi
44. Baliqlarning bosh miyasi necha bo`limdan iborat ?
- A) 3. B) 4. C) 5. D) 6.
45. Baliqlarda qon aylanish a`zolari ishini bosh miyaning qaysi qismi boshqaradi ?
- A) oldingi. B) o`rta. C) oraliq. D) uzunchoq.
46. Baliqlarda nafas olish funksiyalarini bosh miyaning qaysi qismi boshqaradi ?
- A) oldingi miya. B) oraliq miya. C) miyacha. D) uzunchoq miya.
47. Zog`ora baliqning toq suzgich qanotlariga qaysi qanotlari kiradi ?
- A) dum, qorin, yelka. B) orqa ,dum, anal.  
C) ko`krak, qorin, anal. D) anal, dum.
48. Zog`ora baliqning juft suzgich qanotlariga qaysi qanotlari kiradi ?
- A) ko`krak, qorin. B) jabra oldi qanotlari, qorin suzgichlari.  
C) ko`krak, qorin, anal. D) anal, dum.
49. Baliqlarda ta`m bilish hujayralari qayerda joylashgan ?
- 1) og`izda 2) tilda 3) yon chizig`ida 4) halqumda 5) oshqozonda 6) butun tanasi
- A) 1,2,3. B) 2,3,4. C) 4,5,6. D) 1,4,6.
50. Baliq (1), uy pashshasi (2) va yashil bronza qo'ng'izi (3) ning ta'm bilish hujayralari qayerda joylashgan ?

a) oldingi oyoqlari panjasidagi tukchalarda b) og'iz bo'shlig'ida  
c) paypaslagichlarda d) halqumda e) tana yuzasida f) mo'ylovida  
j) yostiqchasimon xartumchada

A) 1 b, d, e; 2 a; 3 c

B) 1 b, d, e; 2 a, c; 3 f

C) 1 b,d; 2e,f; 3c

D) 1 b, d, e; 2 c, j; 3 a, f

51. Faqat yaqindan ko'radigan, narsalarning shakli va rangini farq qila oladigan hayvonni aniqlang.

A) ko'rgalak B) qizilto'sh C) dengiz otchasi D) boyo'g'li

52. Baliqlarning urug'donida to'plangan "sut" suyuqligining tarkibida nima bo'ladi ?

A) tuxum hujayra

B) spermatozoidlar

C) jinsiy gormonlar va chavoqlar

D) sariqlik modda

53. Qaysi organizmlarga bitta yopiq qon aylanish doirasi xos ?

1) yomg'ir chuvalchangi 2) pavituxa 3) zog'ora baliq 4) manta 5) itbaliq

6) lansetnik 7) dengiz tulkisi 8) eshakqurti 9) iskabtopar 10) bitiniya

A) 2,8,9,10. B) 1,3,4,5,6,7. C) 1,2,3,4,10. D) 5,6,7,8,9.

54. Suvning yo`nalishi va oqim kuchini baliqlarning qaysi sezgi organi qabul qiladi ?

A) ta`m bilish. B) eshitish. C) ko`rish. D) yon chiziq.

55. Zog'ora baliqning urug`langan tuxum hujayrasidan sharoit qulay bo`lganda necha kundan keyin baliqchalar chiqadi ?

A) 1-2 B) 2-3 C) 4-6. D) 10-11.

56. Qaysi baliq so`lak bezlari ishab chiqaradigan suyuqlik bilan suvo`tlarini yopishtirib, uya yasaydi ?

A) dengiz otchasi. B) tilyapiya C) tikan baliq. D) oq sla.

57. Qaysi baliq tuxumini og`zida olib yuradi ?

A) tilyapiyaning urg`ochisi. B) tilyapiyaning erkagi.

C) dengiz otchasi urg`ochisi D) tikanbaliq urg`ochisi

58. Quyidagi baliqlarning qaysi birining erkagi urg`ochisi qo`ygan tuxumini qornida maxsus xaltasida olib yuradi ?

A) tikanbaliq. B) tilyapiya C) dengiz otchasi. D) zog`ora

59. Baliqlarning jabralari ... (1) dan iborat bo'lib, gaz almashinuvi ... (2) qismida sodir bo'ladi.

a) jabra ravoqlari b) jabra varaqlari c) jabra qilchalari d) jabra qopqog'i e) jabra varaqlaridagi kapillarlar f) jabra qilchalaridagi kapillarlar

A) 1 - a, b, c, d; 2- e

B) 1 - a, d, e; 2 - e, f

C) 1- a,b, c, d; 2- a, f

D) 1 - a, b, d; 2-c,f

60. Baliqlarda ko`payish instinkti qachon paydo bo`ladi ?

A) jinsiy hujayralar yetila boshlashi bilan.

B) bahorda suvlar iliy boshlashi bilan.

C) lichinkalik davri tugagach.

D) suv harorati ko`tarilganda

61. Qaysi turkum vakillari ko`payish davrida dengizdan chuchuk suvlarga o`tadi ?
- A) olabug`a baliqlar, B) losossimonlar,  
C) bakra baliq, D) cho`rtanlar
62. Qaysi turkum vakillari tuxum qo`yish uchun Amur daryosining irmoqlariga o`tadi ?
- A) suyak-tog'ayli baliqlar B) karpsimonlar  
C) panja qanotlilar D) losossimonlar
63. Losossimonlar turkumining qaysi vakillari chuchuk suv (a) va dengizlarda (b) tarqalgan ? 1) losos 2) forel 3) keta 4) gorbusha
- A) a-1, 2; b-3, 4 B) a-1; b-2, 3, 4  
C) a-2; b-1, 3, 4 D) a-3, 4; b-1, 2
64. Uzoq Sharq daryolaridan qaysi turkumga tegishli baliqlar O'rta Osiyo suv havzalarida iqlimlashtirilgan ?
- A) baqra baliqlar B) losossimonlilar  
C) karpsimonlar D) skatsimonlar
65. Baliqlarning tana shakli, rangi, xilma-xilligini keltirib chiqaruvchi omillar qaysi javobda to`g`ri keltirilgan ?
- 1) yashash sharoiti 2) oziq tarkibining xilma-xilligi 3) o`zaro raqobat  
4) dushmanlarning ko`p bo`lishi 5) yashaydigan joyidagi suv muhitining rangi  
6) kelib chiqishi 7) suv bosimi kuchi 8) harorat 9) yorug`lik 10) suvning oqimi
- A) 1,2,4,6,8,9. B) 2,3,5,9,6. C) 1,5,4,6,8,10. D) 1,2,3,4,
66. Skeletining tuzilishiga ko`ra baliqlar qanday sinflarga ajratilgan ?
- A) suyakli, suyaksiz baliq.  
B) suyakli, suyak-tog`ayli baliqlar.  
C) suyakli va tog`ayli baliqlar.  
D) osyortsimonlar, karpsimonlar, seldsimonlar, losossimonlar, cho`rtanlar sinfi.
67. Tog`ayli baliqlarning belgilarini ajratib ko`rsating.
- 1) tanasi tangachalar bilan bir tekis qoplangan, 2) suzgich pufagi bo`ladi,  
3) suzgich pufagi bo`lmaydi, 4) faqat tuxum qo`yib ko`payadi, 5) jabra qopqog`i jabrani himoya qilib turadi, 6) jabra qopqog`i yo`q, 7) skeleti tog`aydan iborat,  
8) skeleti suyakdan iborat, 9) ko`pchiligi tirik tug`ib ko`payadi
- A) 3,6,7,9, B) 1,3,8,9, C) 3,4,6,7, D) 1,4,6,8
68. Baliqlarning qaysi birida suzgich pufaklari bo`lmaydi ?
- A) keta. B) gorbusha. C) manta. D) okun.
69. Qaysi baliqlar tirik tug`adi ?
- A) akula, skat. B) cho`rta, oq amur.  
C) laqqa, xumbosh. D) zog`ora, tikan baliq.
70. Tikanli akula qaysi sinfga mansub ?
- A) tog'ayli baliqlar sinfi B) suyakli baliqlar sinfi  
C) sutemizuvchilar sinfi D) suyak-tog'ayli baliqlar sinfi
71. Qaysi organizmlarda eshitish organi faqat ichki quloqdan iborat ?



85. Skatlar qanday ko`payadi ?  
 A) tuxum qo`yib.  
 B) juda tez tuxum qo`yib.  
 C) juda serpusht bo`lib, ko`payish uchun okeandan dengizga suzib o`tadi.  
 D) kampushtli bo`lib, 1-3 tadan 20-30 tagacha nasl beradi, tirik tug`adi.
86. Qaysi baliqning ko'krak suzgichlari tanasi bilan tutashib ketgan ?  
 A) baqra B) manta C) cho`rtan D) akula
87. Tikanli (1), gigant (2), va kit (3) akulasining uzunligini toping.  
 a) 18 m b) 15 m c) 180 sm d) 40-45 sm e) 4-4,5 m  
 A) 1d, 2b, 3c B) 1e, 2b, 3a C) 1c, 2e, 3a D) 1d, 2b, 3a
88. Qaysi baliqlarda yog`du taratadigan a'zolari (1) va dum suzgichi (2) kuchli rivojlanganligini aniqlang.  
 a) dengiz tubida yashaydigan baliqlar b) ikki tomonli yassi baliqlar c) suv yuzasida va ochiq dengizda yashaydigan baliqlar.  
 A) 1-a, 2-b B) 1-a,2-c C) 1-c, 2-b D) 1-b,2-c
89. Baliqlarning qaysi turkum vakillarida ichki urug`lanish kuzatiladi ?  
 1) bakra 2) akulalar 3) skatlar 4) karpsimonlar 5) losossimonlar  
 A) 1, 2, 3 B) 2,3 C) 3, 4, 5 D) 2, 4, 5
90. Suyak-tog`ayli baliqlar turkumiga xos xususiyatlar ?  
 1) boshining oldingi tomoni uzun tumshuqni hosil qiladi 2) o`q skeleti va qutisi qisman suyakka aylangan 3) boshi tanasiga nisbatan kattaroq 4) og`iz teshigi boshining ostki tomonida 5) suzgich qanotlari tikanli 6) skeleti asosan tog`aydan iborat 7) o`q skeleti xordadan iborat 8) jabra qopqoqlari va suzgich pufagi yo`q 9) bosh qutisi suyak bilan qoplangan 10) tirik tug`adi  
 A) 1,4,6,7,9. B) 2,3,5,8,9. C) 2,5,7,8,9. D) 1,2,4,8,10
91. Uzunligi 75 sm gacha og`irligi, 2 kg gacha boradigan noyob tur sifatida muhofaza qilinadigan baliqni belgilang.  
 A) soxta kurakburun. B) forel. C) sudak. D) cho`rtan.
92. Beluga qaysi turkumga mansub ?  
 A) suyak-tog`ayli baliqlar turkumiga B) losossimonlar turkumiga  
 C) skatlar turkumiga D) olabug`asimonlar turkumiga
93. Qilquyruq balig`i qaysi turkumga kiradi ?  
 A) suyak-tog`ay baliqlar turkumiga B) losossimonlar turkumiga  
 C) skatlar turkumiga D) olabug`asimonlar turkumiga
94. Suyak tog`ayli baliqlar turkumiga mansub baliqlar turini belgilang ?  
 A) bakra, B) gulmoy, C) cho`rtan, D) laqqa
95. Bakra va soxta kurakburun baliqlar qaysi turkumga mansub ?  
 A) olabug`a, B) cho`rtanlar,  
 C) suyak-tog`ayli, D) losossimonlar
96. Qaysi baliqlarning orqa suzgichi bitta bo`ladi ?  
 1) oqcha 2) forel 3) oqamur 4) keta 5) cho`rtan 6) bukri  
 A)2,4,6. B)1,2,6. C)1,3,5. D)barchasida.
97. O`q skeleti suyaklanmagan organizmlar ?

- 1) oq amur 2) sterlyad 3) oqcha 4) beluga 5) laqqa 6) qil quyruq  
 A) 1,2,3, B) 4,5,6, C) 1,3,5, D) 2,4,6
98. Sirdaryo va Amudaryoda tarqalgan losossimonlar turkumi vakilini belgilang.  
 A) gulmoy B) xumbosh C) qilquyruq D) beluga
99. Soxta kurakburun baliqning ikkinchi nomi qanday ?  
 A) forel B) beluga C) qilquyruq D) gulmoy
100. Qaysi turkumga mansub baliqlarning tanasi bo`ylab 5 qator romb shaklidagi suyak plastinkalari joylashgan ?  
 A) bakra baliqlar, B) losossimon baliqlar,  
 C) seldsimonlar, D) ilonbaliq
101. Noyob tur sifatida muhofaza qilinadigan baliq turini belgilang.  
 A) bakra, B) gulmoy, C) katta soxta kurakburun, D) manta,
102. Faqat chuchuk suvlarda yashovchi baliqlar ?  
 1) mo`ylov baliq, 2) gulmoy, 3) qora baliq, 4) moy baliq, 5) oqcha baliq,  
 6) tikan baliq  
 A) 2,4,6, B) 1,4,5, C) 1,2,3, D) 2,3,6
103. Qaysi baliqning orqa suzgichi ikkita bo`ladi ?  
 1) oqcha, 2) forel, 3) oq amur, 4) keta, 5) cho`rtan, 6) bukri,  
 A) 2,4,6, B) 1,2,6, C) 1,3,5, D) barchasi
104. O`q skeleti suyaklangan organizmlar ?  
 1) oq amur 2) sterlyad 3) oqcha 4) beluga 5) laqqa 6) qilquyruq  
 A)1,2,3. B)4,5,6. C)1,3,5. D)2,4,6.
105. Daryo (a) va dengiz (b) suvlarida tarqalgan baliqlarni juftlang.  
 1) elektr skat 2) qilquyruq 3) manta 4) tikan baliq 5) gorbusha, 6) zog`ora baliq 7) lasos 8) ugor 9) keta 10) gulmoy  
 A) a-1,2,3,4,5, b-6,7,8,9,10. B) a-1,3,5,7,9, b-2,4,6,8,10.  
 C) a-2,4,6,8,10, b-1,2,5,7,9. D) a-1,4,5,8,9, b-2,3,6,7,10.
106. Keta va garbusha uchun xos bo`lmagan xususiyatlar ?  
 1) faqat bosh qutisi suyakdan iborat, 2) orqa suzgichi 2 ta, 3) ko`payish davrida dengizdan daryoga o`tadi, 4) ko`payish davrida daryodan dengizga o`tadi,  
 A) 1,4, B) 2,3, C) 1,3, D) 2,4
107. Keltirilgan baliqlarning qaysi birlarida mo`ylovlar bo`lmaydi ?  
 1) laqqa 2) treska 3) qil quyruq 4) zog`ora baliq 5) cho`rtan  
 A) 2,4. B) 3,5. C) 1,2,4. D) 2,4,5.
108. Ko`payish davrida dengizdan daryoga va daryodan dengizga o`tmaydigan baliqlar ?  
 1) keta 2) tikan baliq 3) zog`ora baliq 4) gorbusha 5) ugor.  
 A)1,2,5. B)3,4. C)2,3. D)1,4,5.
109. Losossimonlar turkumiga kiruvchi baliqlar berilgan qatorni aniqlang ?  
 A) losos, keta, bukri baliq, gulmoy. B) kichik qilquyruq, bukri, oq sla.  
 C) osetr, kambala, qilquyruq. D) ilonbaliq, sterlyad, beluga.
110. Chuchuk suv (a) va dengizlarda (b) yashovchi formalarni juftlab ko`rsating.

- 1) soxta kurakburun 2) keta 3) qora baliq 4) gulmoy 5) osminog 6) nereida  
 7) qizil chuvalchang 8) oq planariya 9) aktiniya 10) foraminifera  
 11) nursimonlar 12) baqachanoq  
 A) a-1, 2, 3, 4, 5, 6; b-7, 8, 9, 10, 11, 12  
 B) a-1, 3, 4, 7, 8, 12; b-2, 5, 6, 9, 10, 11  
 C) a-1, 2, 4, 7, 8, 12; b-3,5,6, 9,10, 11  
 D) a-2, 3, 4, 7, 9, 12; b-1, 5, 6, 8, 10, 11
111. Baliq qon aylanish sistemasining qaysi qismida faqat vena qon boiadi ?  
 1) orqa aorta 2) qorin aorta 3) yurak qorinchasi 4) yurak bo'lmasi  
 A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1,2,4
112. Qaysi organizmlarning erkagi nasliga g`amxo`rlik qiladi ?  
 1) dengiz otchasi 2) tilyapiya 3) tikan baliq 4) okun 5) dengiz tulkisi  
 6) tuyaqush 7) treska 8) zog`ora baliq  
 A) 4,5,7,8. B) 1,2,3,6. C) 1,2,4,5. D) 3,6,7,8.
113. O`q skeleti va bosh qutisi qisman suyakka aylangan baliqni belgilang ?  
 A) skat. B) bakra. C) gulmoy. D) oq sla.
114. O`q skeleti va bosh qutisi qisman suyakka aylangan baliqlar guruhini belgilang ?  
 A) lasossimonlar, keta, gorbusha. B) bakra, beluga, strelyad.  
 C) akula, dengiz tukli skati. D) tikanbaliq, tilyapiya, dengiz otchasi.
115. Qaysi baliqning orqa suzgich qanoti ortida yana bir yon suzgich qanoti bo`ladi ?  
 A) gulmoy. B) cho`rtan. C) skat. D) manta.
116. Keta va gorbusha uchun xos bo`lgan xususiyatlar ?  
 1) tana skeleti faqat tog`aydan iborat 2) orqa suzgichi ikkita 3) ko`payish davrida dengizdan daryoga o`tadi 4) ko`payish davrida daryodan dengizga o`tadi.  
 A)1,4. B)2,3. C)1,3. D)2,4.
117. O'zbekistonda iqlimlashtirilgan baliqlarning turkumlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 A) karpsimonlar turkumi - oq amur, gulmoy  
 B) karpsimonlar turkumi - xumbosh, bakra  
 C) losossimonlar turkumi - xumbosh, gulmoy  
 D) karpsimonlar turkumi - oq amur, xumbosh
118. Quyidagi baliqlarni turkumlarga ajrating.  
 1) losossimonlar 2) bakra 3) karpsimonlar 4) olabug'asimonlar 5) tog'ayli baliqlar  
 a) losos b) tikanli akula c) sudak d) beluga e) qora baliq.  
 A) 1-a, 2-d, 3-e, 4-c, 5-b B) 1-a, 2-e, 3-c, 4-d, 5-b  
 C) 1-a, 2-d, 3-c, 4-e, 5-b D) 1-a, 2-e, 3-d, 4-c, 5-b
119. Uzun anal suzgichiga ega bo'lgan baliqni ko'rsating.  
 A) beluga B) sterlyad C) oqcha D) laqqa
120. Keltirilgan baliqlarning qaysi birlarida mo`ylovlar bo`ladi ?  
 1) laqqa 2) treska 3) qilquyruq 4) zog`ora baliq 5) cho`rtan

- A) 2,4 B) 3,5 C) 1,2,4 D) 2,4,5
121. Orol dengizi, Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryoda uchraydigan baliqlar ?  
 1) mo'ylovli baliq 2) gulmoy 3) qorabaliq 4) moy baliq 5) oqcha baliq  
 6) tikan baliq  
 A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,2,3 D) 2,3,6
122. Moy baliq va oqcha baliq O'zbekistonning qayerida uchraydi ?  
 A) orol dengizida  
 B) O'rta Osiyo suv havzalarida  
 C) Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshonning quyi qismida  
 D) Sirdaryo havzalarida
123. Karpsimonlarga mansub bo'lmagan baliqlarni belgilang ?  
 1) moybaliq 2) gulmoy 3) bakra 4) qorabaliq 5) sudak 6) oqcha 7) keta  
 8) zog'ora baliq  
 A) 2,3,5,7 B) 1,2,4,8 C) 2,4,5,6 D) 1,4,6,8
124. Tog' daryolari va soylarida tarqalgan baliq turini belgilang ?  
 A) mo'ylov baliq B) moybaliq C) qorabaliq D) oqcha baliq
125. O'rta Osiyo suv havzalariga keltirilib iqlimlashtirilgan baliqlar guruhi berilgan qatorni aniqlang.  
 1) gulmoy 2) oq amur 3) oqcha 4) moybaliq 5) ilonbosh 6) xumbosh  
 7) bakra  
 A) 1,4,7 B) 2,5,6 C) 1,3,7 D) 3,4,5
126. Hozirgi vaqtda faqat bitta vakili bor baliqlar turkumini belgilang ?  
 A) akulalar B) skatlar C) osetrsimonlar D) panjaqanotlilar
127. Panjaqanotlilar turkumiga kiradigan baliqlarni belgilang ?  
 A) kambala B) sudak C) forel D) latimeriya
128. Trauler nima ?  
 A) baliqlar sun'iy yo'l bilan urchitiladigan xo'jalik  
 B) baliqlarning bir turi  
 C) baliq ovlash uchun maxsus kemalar  
 D) baliqlar rivojlanish davrining bir bosqichi
129. Jahonda har yili qancha baliq ovlanadi ?  
 A) 1000000 mln tonna B) 10 mln tonna  
 C) 20 mln tonna D) 50 mln tonna
130. Baliqlar bilan suvda va quruqlikda yashovchilarning o'xshashlik belgilarini ko'rsating ?  
 A) nafas olish, B) qon aylanishi, C) nerv sistemasi, D) ko'payish, rivojlanish
131. Asosiy ovlanadigan baliqlar ?  
 1) oq amur 2) zog'ora baliq 3) oqcha 4) xumbosh 5) oq sla 6) qilquyruq  
 7) ilonbosh  
 A) 1,3,6,7 B) 2,4,5,6 C) 1,3,5,6,7 D) 1,2,3,4,5,7
132. Baliqchilik sanoatiga zarar yetkazuvchi organizmlar ?  
 1) dengiz likopchjasi 2) suv shillig'i 3) dreysena 4) baqachanoq 5) manta  
 6) kit akulasi 7) qilquyruq 8) baqa lichinkasi



9. Baqaning eshitish organi qanday qismlardan iborat ?

- A) tashqi quloq, ichki quloqdan
- B) nog`ora parda, o`rta quloq, ichki quloq
- C) nog`ora parda, eshitish suyaklaridan
- D) faqat rivojlangan ichki quloqdan

10. Voyaga yetganda o`pka bilan, lichinka davrida jabra bilan nafas oladigan hayvonni aniqlang.

- A) uy pashshasi
- B) bezgak chivini
- C) baqa
- D) timsoh

11. Ikkita qon aylanish doirasi va uch kamerali yurakka ega bo`lgan organizmlarni ko`rsating.

1) itbaliq 2) triton 3) alligator 4) gavial 5) kojan 6) kaputsin 7) gekkon

- A) 1,2,6,7
- B) 3,4,5,7
- C) 2, 7
- D) 3,4,5,6

12. Baqa qachon uyquga ketadi ?

- A) qishda
- B) kuzda
- C) yozda
- D) bahorda

13. Baqa nima bilan oziqlanadi ?

- A) qo`ng`iz, pashsha, chivin, o`rgimchak, mayda umurtqasiz hayvonlar
- B) qisqichbaqa va chivinlar
- C) baliqlar va planktonlar
- D) chigirtka, suv qandalasi, qurtlar, o`rgimchak, mayda baliqlar

14. Baqaning tana tuzilishi uchun xos xususiyatlar ?

1) gavadasi yapaloq 2) katta yassi boshi 3) bo`yni yo`q 4) boshi tanasiga chegarasiz qo`shilib ketgan, boshi bilinmaydi 5) ko`zi qovoqsiz 6) ko`zini yuqoridan va pastdan harakatchan qovoqlar himoya qiladi 7) qovoqlarni tez-tez yopib turadi shu yo`l bilan ko`zlari namlanib turadi 8) 1 juft burun teshiklari bor

- A) 1,2,1,5,7
- B) 1,3,4,6,8
- C) 1,2,4,6,7,8
- D) 1,3,4,5,6,7,8

15. Baqada hid bilish, havo o`tkazish vazifasini nima bajaradi ?

- A) teri
- B) burun
- C) teri, burun
- D) og`iz

16. Baqa suvga sho`ng`iganida o`pkasiga suv kiradimi ?

- A) nafas olmagan uchun suv kirmaydi
- B) suv ostida baqaning xaltasimon o`pkasi suvga to`ladi, o`pka devorlaridagi kapillarlar suvda erigan kislorodni o`ziga kiritib oladi, shu sababli baqa suv ostida ko`p turadi
- C) baqa suvda jabra teshiklari orqali nafas olishi sababli o`pkaga o`tuvchi havo yo`llari yopiladi
- D) burun teshiklarida maxsus klapanlar bo`lib, suvga tushganda yopiladi. Suv ostida baqa terisi orqali nafas oladi

17. Baqalar qachon va qaysi biri vaqillaydi ?

- A) kechqurun, erkagi
- B) kunduzi, urg`ochisi
- C) kuzda, erkagi
- D) urchish vaqtida, faqat erkagi

18. Baqaning oyoqlari qanday qismlarga bo`linadi ?

- A) son, boldir, tovon, panja
- B) yelka, bilak, tirsak, barmoq
- C) oldingi oyoqlari, yelka, bilak, panja, orqa oyoqlari, son, boldir, tovon





41. Baqaning tishchalari qanday shaklda va ular qayerda joylashgan ?  
 1) pastki jag'ida 2) yuqori jag'ida 3) tanglayida 4) halqumida  
 a) konussimon b) yassi c) kuraksimon  
 A) a-1, 2 B) a-2, 3 C) b-3, 4 D) c-2,3
42. Baqaning quruqlikda (a) va nam sharoitda (b) yashashga moslanish belgilari ?  
 1) terisining yupqa va nam bo'lishi 2) terining nafas olishida ishtirok etishi  
 3) yapaloq gavdasi 4) qovoqlarning rivojlanganligi 5) o'rta quloq va eshitish suyakchasining rivojlanganligi 6) ko'payishining suvda o'tishi  
 A) a-3,4,5 b-1,2,6 B) a-1,2,6 b-3,4,5  
 C) a-1,2,3 b-4,5,6 D) a-3,5,6 b-1,2,4
43. Baqa umurtqa pog'onasi tuzilishining baliqnikidan farqi ?  
 1) boshi umurtqa pog'onasiga harakatsiz qo'shilgan 2) bitta bo'yin umurtqasi mavjud 3) qovurg'alar rivojlanmagan 4) dum umurtqalari birlashib bitta dum suyagini hosil qiladi 5) qovurg'alar faqat dum umurtqalarida bo'lmaydi  
 A) 1,5 B) 1,3,4 C) 2,3,5 D) 2,3,4
44. Baqaning skeletiga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang.  
 1) ko'krak qafasi bo'lmaydi 2) bo'yin umurtqalari bo'lmaydi 3) bo'yin umurtqalari bosh suyagiga harakatchan birikkan 4) qovurg'alar, ko'krak umurtqalari, to'sh suyagi ko'krak qafasini hosil qiladi 5) orqa oyoqlari kamari harakatsiz birikkan uchta chanoq suyaklaridan iborat.  
 A) 1,2 B) 1,3,5 C) 2,4 D) 3,4,5
45. Ayirish organlari tasmasimon shaklli bo'lmagan organizmlar ?  
 1) taroqcha 2) o'troq dengiz chuvalchang 3) ko'k kit 4) baqa 5) dreysena  
 6) triton 7) tillako'z 8) nereida 9) delfin 10) omar 11) bitiniya  
 A) 2,3,7,8,9,10 B) 3,4,5,9,11 C) 1,4,5,6,11 D) 1,2,5,10
46. Baqa skeletiga xos xususiyatlarni ko'rsating.  
 A) bo'yin va dum umurtqalarining yo'qligi  
 B) 2 ta bo'yin va dum umurtqalarining borligi  
 C) qovurg'alar, bo'yin va dum umurtqalarining yo'qligi  
 D) qovurg'alarning yo'qligi, 1 ta bo'yin umurtqasi bo'lishi, dum umurtqalarining qo'shilib, dum suyagini hosil qilishi
47. Baqa yuragining bo'limlari sonini belgilang.  
 A) 1 ta yurak qorinchasi va 1 ta yurak bo'lmasi  
 B) 2 ta yurak qorinchasi, 2 ta yurak bo'lmasi  
 C) 2 ta yurak qorinchasi, 1 ta yurak bo'lmasi  
 D) 1 ta yurak qorinchasi, 2 ta yurak bo'lmasi
48. Umurtqalilarning qaysi sinfidan boshlab ikkita qon aylanish doirasi hosil bo'ladi ?  
 A) baliqlar B) suvda va quruqda yashovchilar  
 C) sudralib yuruvchilar D) qushlar
49. Baqa tanasining qaysi qismi faqat arteriya qoni bilan ta'minlanadi ?  
 A) oyoq va qo'llari B) orqa miya C) bosh miya D) ichki organlar

50. Baqaning qaysi organi kislorodga boy toza qon bilan ta`minlanadi va nima tufayli ?
- A) orqa miya, qorinchadan chiqadigan tomirlarning o`ziga xos joylashuvi  
 B) bosh miya, qorinchadan chiqadigan tomirlarning o`ziga xos joylashuvi  
 C) o`pka, o`ng bo`lmadan alohida qon tomirlar chiqqanligi  
 D) jigar, chap bo`lmadan alohida qon tomirlar chiqqanligi
51. Baqaning teri va o`pksiga qanday qon boradi ?
- A) aralash  
 B) venoz, aralash  
 C) karbonat angidridga to`yingan  
 D) kislorodga to`yingan
52. Qaysi hayvonning urug`langan tuxumi tiniq, yopishqoq, shilimshiq modda hosil qiladi ?
- A) osyotr  
 B) ugor  
 C) lantsetnik  
 D) baqa
53. Suvda ham quruqlikda yashovchilar lichinkasining ichki jabralari qaerda joylashgan ?
- A) o`pka devorida  
 B) halqum devorida  
 C) og`zida  
 D) boshining ikki yonida
54. O`pkali panjaqanotlilardan ... kelib chiqqan.
- A) qadimgi dumlilar  
 B) dumsizlar  
 C) toshbaqalar  
 D) baliqlar
55. Qadimgi panjaqanotlilar nima orqali nafas olgan ?
- A) traxeya  
 B) o`pka  
 C) jabra  
 D) teri
56. Dumsiz suvda va quruqlikda yashovchilar ... kelib chiqqan.
- A) o`pkali panja qanotlilardan  
 B) qadimgi dumlilardan  
 C) tog`ayli balqlardan  
 D) bosh skeletsizlardan
57. Itbaliqning rivojlanishiga xos bo`lmagan xossani aniqlang.
- A) qon aylanish doirasi bitta  
 B) yuragi ikki kamerali  
 C) tashqi jabralar halqum devorida joylashgan ichki jabra bilan almashinadi  
 D) ichki jabralar halqum devorida joylashgan tashqi jabra bilan almashinadi
58. Qaysi umurtqalilarda birinchi bo`lib o`rta quloq paydo bo`lgan ?
- A) suvda hamda quruqlikda yashovchilarda  
 B) baliqlarda  
 C) sudralib yuruvchilarda  
 D) lansetnikda
59. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfi qancha turni o`z ichiga oladi ?
- A) 20000  
 B) 30000  
 C) 3500  
 D) 4000
60. Dumsizlar turkumiga kiruvchi hayvonlar qatorini aniqlang ?
- A) qurbaqa, baqa  
 B) baqa, kvaksha  
 C) triton, yashil qurbaqa  
 D) kvaksha, chirildoq qurbaqa, taroqli triton
61. O`zbekiston hududida eng ko`p tarqalgan suvda hamda quruqlikda yashovchilar qaysilar ?
- A) kvaksha  
 B) yashil qurbaqa, ko`l baqasi  
 C) triton  
 D) kaltakesak
62. Qurbaqa va baqaning qanday farqlari bor ?

- A) farqi yo`q  
 B) qurbaqa gurillaydi, baqa esa gurillamaydi  
 C) baqaning dumi bor, qurbaqada yo`q  
 D) qurbaqa terisi baqaning terisiga nisbatan dag`al va quruq o`pkasi yaxshi rivojlangan
63. Voyaga yetgan qurbaqa 9 oy davomida qancha hasharotni yo`q qiladi ?  
 A) 3000 B) 20000 C) 10000 D) 5000
64. Suvda ham quruqlikda yashovchilarning daraxtda yashovchi vakili ?  
 A) kvaksha B) triton C) salamandra D) gekkon
65. Baqalarning urug'langan tuxumida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi ?  
 A) qobig'i bo'rtib, tiniq, shilimshiq parda hosil qiladi  
 B) yiriklashib, pishiq oqsilli po'st bilan qoplanadi  
 C) ustki qismi oqimtir rangga kiradi  
 D) yiriklashib, suv yuzasida yakka-yakka bo'lib, qalqib turadi
66. Qaysi hayvonlarda ayirish mahsulotlari kristallanmaydi ?  
 1) zorka 2) baqa 3) olma mevaxo`ri 4) dengiz tulkisi 5) xonqizi 6) lansetnik  
 A) 1,2,4, B) 1,3,5, C) 3,5,6, D) 2,4,6

#### 8.4. Sudralib yuruvchilar sinfi.

1. Qaysi hayvonning boshi 8 ta bo'yin umurtqalari orqali tanasiga harakatchan birikkan ?  
 A) baqa B) qurbaqa C) it D) kaltakesak
2. Nima sababdan sudralib yuruvchilarda o'pkaning gaz almashinadigan yuzasi kengaygan ?  
 A) o'pkada alveolalar paydo bo'lgan  
 B) o'pkada bronxiolalar va alveolalar shoxlanib ketgan  
 C) o'pka devori katakchalarga bo'lingan  
 D) tez-tez nafas olganligi sababli
3. Ko'krak qafasi rivojlangan (1) va rivojlanmagan (2) umurtqalilarni aniqlang.  
 a) beluga b) baqa c) qurbaqa d) keta e) kit f) kaltakesak j) ko'rgalak  
 A) 1 - a, d, e, f; 2- b, c, j B) 1 - f, j; 2 - a, b, c, d, e  
 C) 1 - a, b, c, d; 2 - e, f, j D) 1 - e, f, j; 2 - a, b, c, d
4. Bizda kaltakesaklarning qanday turlari uchraydi ?  
 1) dasht agamasi 2) echkiemar 3) sariq ilon 4) urchuqsimon 5) bo`g`ma ilon  
 A) 1,2,3,4 B) 1,3,5,2 C) 2,5,3,4 D) 1,4,5,3
5. Tunda ovga chiquvchi kaltakesak ?  
 A) kulrang echkiemar B) oyoqsiz kaltakesak  
 C) dasht agamasi D) gekkonlar
6. Oyoqsiz kaltakesaklar nomi berilgan qatorni aniqlang ?  
 A) sariq ilon, urchiqsimon kaltakesak B) gekkon

C) taroq barmoqli gekkon

D) chiyildoq

7. Sudralib yuruvchilar sinfi uchun xos tavsiflar qaysi javobda o`z ifodasini topgan ?

1) terisi muguz tangachalar yoki qalqon bilan qoplangan 2) quruqlikda hayot kechiradi 3) bazi turlari suvda yashaydi 4) 60000 turni o`z ichiga oladi 5) tuxumlarini quruqlikka qo`yadi 6) 6000 turni o`z ichiga oladi 7) ayrim turlari tirik bola tug`adi 8) tuxumdan chiqqan bolasi dastlabki davrlarda o`ziga o`xshamaydi 9) kalta oyoqlari va uzun dumi yordamida gavdasini yerga sudrab yuradi 10) suvda suzib yuradi 11) ba`zi turlari havoda uchib yuradi 12) faqat o`pkasi orqali nafas oladi 13) qoni aralash 14) suvda yashovchi vakillari tuxumlarini suvda to`nkalar orasiga qirg`oq yaqiniga qo`yadi

A) 1,2,3,4,7,9,10,11

B) 1,3,4,6,9,12,13,14

C) 2,4,7,9,10,11,12

D) 1,2,3,5,6,7,9,10,11,12,13

8. Ildam kaltakesak qayerlarda yashaydi ?

A) cho`lda B) tog`da

C) hamma yerda D) O`rta Osiyoning cho`l va to`g`oldi mintaqalarida

9. Ildam kaltakesakning uzunligi qancha ?

A) 10-15 sm

B) 15-20 sm dumi bilan

C) 30-35 sm

D) 25-30 sm

10. Kaltakesakda nechta qovoq bo`ladi va u nima vazifani bajaradi ?

A) kaltakesak qovoqsiz, shu sababli ko`zi yumilmaydi

B) ko`zlar shishasimon parda bilan to`silgan

C) 3 ta qovoq bo`lib, uchinchi qovog`i doimo pirpirab turadi, bu qovoqning ochilib yopilishidan ko`z namlanib turadi

D) 2 ta, hech qanday funksiyani bajarmaydi

11. Kaltakesakdagi nog`ora parda qanday a`zo va nima vazifani bajaradi ?

A) tashqi eshitish a`zosi

B) tuyg`u

C) hid bilish organi, tuyg`u vazifasini bajaradi

D) kaltakesakda nog`ora parda bo`lmaydi

12. Hasharotlar o`rmlayotganidan chiqadigan tovushni eshitadigan hayvon?

A) toshbaqa B) qush C) ilon D) kaltakesak

13. Kaltakesakda tuyg`u vazifasini qaysi organ bajaradi ?

A) tanasi B) oyoqlari C) nog`ora parda D) tili

14. Kaltakesak oyoqlarining tuzilishi baqaning oyoqlaridan qanday farq qiadi ?

A) o`xshash

B) kaltakesakda barmoqlar 5 tadan

C) panjalar orasida parda bo`lmaydi

D) oyoq suyaklarining qismlari bilan farq qiladi

15. Kaltakesak bir yoz davomida necha marta tullaydi ?

A) 1 B) 2 C) 3-4 D) 4-5

16. Kaltakesak qachon o`sadi ?

A) 1-5 yoshgacha

B) hayoti davomida

- D) yozda C) tanasidagi yangi terisi qotguncha
17. Kaltakesakda bo`yin umurtqalari soni nechta ?  
A) 5ta B) 6 C) 7 D) 8
18. Kaltakesakda ko`krak qafasini qaysi suyaklar hosil qiladi ?  
A) unda ko`krak qafasi bo`lmaydi  
B) ko`krak umurtqalari, qovurg`alar, to`sh suyagi  
C) to`sh, o`mrov, ko`krak tirgak, qovurg`alar  
D) orqa tomondan kurak, old tomondan to`sh va qovurg`alar
19. Kaltakesakning yuragi necha kamerali ?  
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1
20. Sudralib yuruvchilarda urug`lanish qayerda kechadi ?  
A) suvda  
B) quruqlikda  
C) tashqi  
D) ichki, quruqlikda, erkagi spermatozoidni urg`ochisi kloakasiga tashlaydi, urg`ochisining jinsiy yo`lida
21. Kaltakesak qachon tuxum qo`yadi (nechta) ?  
A) bahorda 10-15 ta  
B) yozda 2-4 ta  
C) kuzda 6-7 ta  
D) bahor oylarining oxiri yozning boshlarida 5 tadan 15-tagacha
22. Qaysi ilonlar boshqa oziqlar bilan bir qatorda ilonlar bilan ham oziqlanadi ?  
1) kapcha ilon 2) ko'lvor ilon 3) charx ilon 4) qalqontumshuq ilon 5) bo'g'ma ilon 6) chipor ilon  
A) 1 B) 2,5 C) 1,3 D) 2,6
23. Nima sababdan sudralib yuruvchilarning qorni yerda sudraladi ?  
A) oyoqlari tanasining ikki yonida joylashgani uchun  
B) oyoqlari tanasining ostida joylashgani uchun  
C) oyoqlari kalta bo'lganligi sababli  
D) qorni muguz tangachalar bilan qoplanganligi sababli
24. Zaharsiz ilonlarni ajrating.  
1) sariq ilon 2) ko'lvor ilon 3) kapcha ilon 4) suvilon 5) bo'g'ma ilon  
A) 1, 2, 3 B) 1, 4, 5 C) 4,5 D) 1, 5
25. Qaysi ilonlar kemiruvchi, qush va kaltakesaklar bilan oziqlanadi ?  
a) bo'g'ma ilon b) chipor ilon c) ko'lvor ilon d) charx ilon e) suvilon f) kapcha ilon  
A) d, e, f B) b, d, e C) a, b, c D) b, c, e
26. Sudralib yuruvchilarga xos bo'lmagan xossa keltirilgan qatorni aniqlang.  
A) faqat o'pka orqali nafas oladi  
B) ichki urug`lanish xos  
C) tuxumdan chiqqan bolasi voyaga yetgan davriga o'xshamaydi  
D) tullab o'sadigan sovuqqonli hayvonlar
27. Ilonlar ko`zining o`ziga xos xususiyati nimadan iborat ?

- A) ilon oziqlanish vaqtida ko`zini yumib oladi.  
 B) qovoqlari 3 ta bo`ladi.  
 C) qovoq 2 ta.  
 D) ustki ostki qovoqlari shaffof bo`lib, soat oynasi kabi ko`zni qoplab turadi ko`zi yumilmaydi.
28. Ilonlarning tullashi kaltakesakning tullashidan qanday farq qiladi ?  
 A) farqlanmaydi  
 B) ilonlar ikki yilda bir marta tullaydi, kaltakesaklar esa bir yoz mavsumida 3-4 bor tullaydi  
 C) kaltakesak tullaganida terisi laxta-laxta bo`lib tushadi ilonlarniki esa paypoqqa o`xshab yaxlit ko`chib tushadi  
 D) ilonlar faqat bahorda yiliga 1 bor, kaltakesaklar esa 1 yozda 4-5 bor tullaydi
29. Ilonlarning yuqorigi va pastki jag`lari nima orqali o`zaro birikkan ?  
 A) cho`ziluvchan paylar yordamida  
 B) tog`ay yordamida  
 C) harakatchan bo`g`im yordamida  
 D) teri orqali
30. Qovurg`alarga tayangan holda harakatlanmaydigan hayvonlar ?  
 1) kapcha( kobra) 2) sariq ilon 3) qalqontumshuq 4) bo`g`ma qum ilon  
 5) gekkon 6) urchuqsimon kaltakesak 7) chipor ilon 8) echkiemar  
 A) 1,3 B) 5,8 C) 1,2,4,6,7 D) 2,5,6,8
31. Ilonlarning zahar bezlari qayerda joylashgan ?  
 A) pastki jag`ining asosida  
 B) yuqorigi jag`ining old tomonida  
 C) og`iz bo`shlig`ida yuqori jag`idan orqaroqda  
 D) tishining asosida
32. Ilonning ikki ayrili tili nima vazifani bajaradi ?  
 A) tam bilish.  
 B) tuyg`u  
 D) ovqatni so`lak bilan aralashtirish C) A,B
33. Ilonlarning eshitish organi qanday ?  
 A) eshitish organi yaxshi rivojlanmagan  
 B) eshitish a`zosi ichki quloqdan iborat  
 C) eshitish azosi kaltakesakniki singari  
 D) ichki quloq, nog`ora parda, Yevstaxiy nayi
34. Zaharli ilonlar nomlari berilgan qatorni aniqlang ?  
 1) kapcha ilon 2) charx ilon 3) ko`lvor ilon 4) qora ilon 5) chipor ilon  
 6) qalqontumshuq ilon 7) suv ilon 8) oq ilon 9) urchuqsimon ilon 10) qum bo`g`ma iloni  
 A) 1,2,3,4,6 B) 1,3,5,6,7 C) 1,4,5,8,9,10 D) 1,2,3,7,8,9
35. Qaysi ilonlar tirik tug`adi ?  
 A) qum bo`g`ma iloni  
 B) ko`lvor ilon  
 C) charx ilon  
 D) kapcha (kobra)
36. O`zbekistonning qayerida kobra yashaydi ?  
 A) O`zbekistonda uchramaydi  
 B) O`zbekistonning janubiy hududlarida

- C) Qarshi dashtida, Nurota tog` tizmalarining tog`oldi hududlarida  
D) Surxon, Sherobod vohalarida
37. Zaharli ilon chaqqanda ilon chaqqan kishiga qanday yordam ko`rsatiladi ?  
A) ilon chaqqan joyning yuqori qismidan bog`lab, tezda shifokorga olib boriladi.  
B) pichoq qizdirib bosiladi, qora choy ichiriladi .  
C) ilon chaqqan joy kuydiriladi, shifoxonaga etiladi.  
D) qo`l bilan siqib, og`iz bilan so`rib tashlanadi, margansovka yoki sirka, sodali suv bilan yuviladi vrachga etiladi.
38. Qovurg`alarga tayangan holda harakatlanadigan hayvonlar ?  
1) kapcha (kobra) 2) sariq ilon 3) qalqontumshuq 4) bo`g`ma qum ilon  
5) gekkon 6) urchiksimon kaltakesak 7) chipor ilon 8) echkiemar  
A)1,3. B) 5,8. C)1,2,4,6,7. D) 2,5,6,8.
39. Ilonlarning uchrash hududi bilan juftlang.  
a) qalqontumshuq b) charx ilon c) qum bo`g`ma ilon d) ko`lvor ilon  
1) Qizilqum, Ustyurt Amudaryo qumloqlarida 2) Janubiy hududning tog`lari va tog` etaklarida 3) Toshkent, Samarqand viloyatlari tog` etaklarida 4) Mirza cho`l va Xorazm cho`llarida 5) O`zbekiston janubidagi cho`l va tog` etaklarida  
A) a-3,4, b-5, c-1, d-2 B) a-4, b-2,5, c-3, d-1  
C) a-4,5, b-2, c-3, d-1 D) a-5, b-2, c-1, d-3,4
40. Qovoqsiz organizmlar ?  
1) triton 2) sariq ilon 3) salamandra 4) dengiz tulkisi 5) qilquyruq  
6) gekkon 7) charx ilon 8) beluga 9) echkiemar 10) chipor ilon  
A) 1,2,4,5,9 B) 4,5,7,8,10 C) 3,6,7,8,10 D)1,2,3,6,9
41. Ko`zlari qovoq bilan qoplangan organizmlar ?  
1) triton 2) sariq ilon 3) salamandra 4) dengiz tulkisi 5) qilquyruq 6) gekkon  
7) charxilon 8) beluga 9) echkiemar 10) chipor ilon  
A) 1,2,4,5,9 B) 4,5,7,8,10 C) 3,6,7,8,10 D) 1,2,3,6,9
42. Oldingi va orqa oyoqlari bir xil bo`lgan hayvonlar ?  
1) temirchak 2) gekkon 3) kaltakesak 4) baqa 5) kenguru 6) echkiemar  
A) 1,2,3 B) 4,5,6 C) 2,3,6 D)1,4,5
43. Eshitish organi yaxshi rivojlanmagan (a) va yaxshi rivojlangan (b) organizmlarni juftlang ?  
1) sariq ilon 2) gulmoy 3) kapcha ilon 4) bo`g`ma ilon 5) gekkon  
6) urchuqsimon kaltakesak 7) chipor ilon 8) qalqontumshuq ilon  
A) a-1,3,4,8, b-2,5,6,7 B) a-1,3,4,7, b-2,5,6,8  
C) a-3,4,7,8, b-1,2,5,6 D) a-1,2,7,8, b-3,4,5,6
44. Uchinchi pirpiraydigan qovoqqa ega bo`lmagan organizmlar ?  
1) triton 2) salamandra 3) povituxa 4) sariq ilon 5) echkiemar 6) agama  
7) bo`g`ma ilon 8) gatteriia  
A) 4,5,6,8 B)1,3,5,7 C)2,4,6,8 D)1,2,3,7
45. Pastki va yuqori jag`lari paylar yordamida harakatchan birikkan hayvonlar ?  
1) kapcha (kobra) 2) sariq ilon 3) qalqontumshuq 4) bo`g`ma qum ilon 5) gekkon  
6) urchiqsimon kaltakesak 7) chipor ilon 8) echkiemar



56. Toshbaqaning qalqoni qaysi suyaklar bilan tutashgan ?  
 a) qovurg'alar b) umurtqalar c) o'mrov d) yelka e) bosh  
 A) a, b, c B) a, d, e C) b, c, e D) a, b, c, d, e
57. Tili yo'g'on, go'shtdor, tishlari yo'q, jag'lari shoxsimon plastinkalar bilan qoplangan. Ko'rish va hid bilish organlari yaxshi rivojlangan. Qaysi hayvonga xos belgilar keltirilgan ?  
 A) timsoh B) qushlar C) gekkon D) toshbaqalar
58. Timsohlar terisi nima bilan qoplangan ?  
 A) xitin bilan B) tog`ay to`qima bilan  
 C) tangachalar bilan D) juda qalin qalqonlar bilan
59. Timsohlarning ko`zi va burni boshining qaysi qismida joylashgan ?  
 A) boshining ustida B) boshining 2 yonida  
 C) boshining ustida maxsus bo`rtmachalarda D) yuqori jag`ida
60. Timsohlar boshqa sudralib yuruvchilardan qanday farqlanadi ?  
 A) tuzilishi B) yirikligi C) o`pkasi D) yuragining tuzilishi
61. Timsohlar qaysi mamlakatlarda alohida hovuzlarda ko`paytiriladi ?  
 A) Kubada B) uzoq Sharqda C) Germaniyada D) Angliyada
62. Quyida berilgan timsohlar bilan ular tarqalgan joylarni juftlab belgilang.  
 a) nil timsahi b) alligator c) gavial 1) Amerika 2) Hindiston 3) Afrika  
 A) 1-c,2-b,3-a B) 1-a, 2-c, 3-b C) 1-b, 2-c, 3-a D) 1-b, 2-a, 3-c
63. Quyidagi hayvonlarning qaysi birlari tanasida aralash qon oqadi ?  
 1) ko`l baqasi 2) cho`rtan baliq 3) itbaliq 4) kvaksha 5) taroqli triton 6) bo`z echkiemar 7) kalxat 8) zubr 9) sayg`oq 10) xumbosh 11) kapcha ilon  
 12) cho`l toshbaqasi  
 A) 1,4,5,6,11,12 B) 2,3,5,6,11,12 C) 1,4,6,8,9,10 D) 3,4,6,7,8,11
64. Embriyoning tuxumda uzoqroq rivojlanishiga sabab nima ?  
 A) sariqlikning ko'p bo'lishi B) qalin qobiq  
 C) nafas yo'llarining mavjudligi D) po'choqning mavjudligi
65. Pastka va yuqori jag`lari paylar yordamida harakatchan birikmagan hayvonlar ?  
 1) kapcha (kobra) 2) sariq ilon 3) qalqontumshuq 4) bo`g`ma qum ilon  
 5) gekkon 6) urchuqsimon kaltakesak 7) chipor ilon 8) echkiemar  
 A) 1,3,4,7 B) 2,5,6,8 C) 1,2,4,5 D) 3,6,7,8

## 8.5. Qushlar sinfi

1. Qushlarning gavdasi qanday qismlardan iborat ?  
 A) bosh, bo'yin, tana, oyoq B) bosh, bo'yin, tana, qanot, oyoq  
 C) bosh, tana, qanot, oyoq D) bosh, bo'yin, qanot, oyoq
2. Qushlarning har bir qoplovchi pati ... iborat.  
 A) ingnchka va nozik o`zakdan  
 B) yo`gon va yumshoq o`zak hamda, dag`al muguz qavatdan  
 C) birlamchi va ikkilamchi o`siqlardan, hamda muguz qoplamdan

- D) ingichka va qattiq o'zakdan, hamda keng yumshoq yelpig'ichdan
3. Qushlarning tana yuzasida qanday patlar joylashadi ?  
 A) qoplag'ich va momiq B) qoqish C) boshqarish D) dag'al
4. Qushlarning qanotlarida qanday patlar joylashadi ?  
 A) qoplag'ich va momiq B) qoqish C) boshqarish D) dag'al
5. Qushlarda muguzdan nima hosil bo'ladi ?  
 A) tumshuq, tirnoqlar B) muguz qoplamlar, pat qoplami  
 C) tumshuq, tirnoqlar, pat qoplami D) faqat tumshuq va muguz qoplamlar
6. Qushlarning dumida qanday patlar joylashadi ?  
 A) qoplag'ich va momiq B) qoqish C) boshqarish D) dag'al
7. Qushlarda dumg'aza suyagining vazifasini ko'rsating ?  
 A) uchayotganda ko'tarish yuzasini hosil qiladi  
 B) qo'nayotganda zarbni yumshatadi  
 C) uchayotganda asosiy og'irlik shu suyakka tushadi  
 D) burilish patlari uchun tayanch bo'ladi
8. Qushlarning ilik suyagi nimadan hosil bo'ladi ?  
 A) boldir suyaklarning qo'shilishidan  
 B) bir necha mayda tovon suyaklarning qo'shilishidan  
 C) sonining uzayishidan  
 D) bir necha barmoq suyaklarni qo'shilishidan
9. Qaysi hayvonda faqat quymich bezi yaxshi rivojlangan ?  
 A) suvda ham quruqda yashovchilar B) baliqlarda  
 C) sudralib yuruvchilarda D) qushlarda
10. Nima hisobiga qushlarning patlari yog'lanib turadi ?  
 A) teridagi bezlar hisobiga B) teridagi yog' bezlari hisobiga  
 C) patning o'zidagi yog' hisobiga D) quymich bezi hisobiga
11. Qushlarning quymich bezi qaerda bo'ladi?  
 A) bel sohasida B) dum asosida  
 C) qanotlarining asosida D) oyoqlarida
12. Qushlarning sudralib yuruvchilardan farqi ?  
 A) tanasida muguz tangachalarining bo'lishi  
 B) bir marta olingan havodan ikki marta nafas olishida  
 C) tuxumlarining sariqlikka bo'yiligi  
 D) terida bezlarning deyarli bo'lmasligi
13. Qushlarning sudralib yuruvchilarga o'xshashlik belgilarini ajrating.  
 1) miyachasi kuchli rivojlangan 2) qon aylanishi murakkab 3) terisida bezlari deyarli bo'lmaydi 4) patlari, terisi muguzli 5) tuxumida sariqligi ko'p 6) tana harorati doimiy 7) embrionining tuzilishi 8) bir marta olgan havosi bilan ikki marta nafas oladi  
 A) 3,5,7,8 B) 1,2,6,8 C) 3,4,5,7 D) 2,4,5,6
14. Qushlarning tana bo'shlig'ini ... himoya qilib turadi ?  
 A) orqa oyoq va qanot kamari B) qovurg'alararo muskullar  
 C) o'mrov usti muskullari D) ko'krak qafasi va chanoq suyaklari

15. Qush tanasini yer yuzasidan dast ko'tarilib turishiga va qo'nayotganda qushning tanasiga beriladigan zarbani kamaytirishda imkon beruvchi suyak ?  
A) ilik B) boldir C) son D) barmoq
16. Qushlar skeletidagi qaysi suyaklar bir nechta mayda suyaklarning qo'shilishidan hosil bo'lgan ? 1) ilik 2) panja 3) dum 4) bo'yin  
A) 1 B) 2 C) 1,2 D) 3,4
17. Qushlar ilik suyagining pastki uchiga qaysi suyaklar kelib tutashgan ?  
A) tovon B) barmoq C) son D) boldir
18. Nima uchun qushlarning skeleti sudralib yuruvchilarnikiga nisbatan mustahkam bo'ladi ?  
A) suyaklari qo'shib o'sganligi uchun  
B) suyaklari yassi bo'lgani uchun  
C) suyaklari havo bilan to'lganligi uchun  
D) suyaklari yengil va yassi bo'lgani uchun
19. Qushning qaysi umurtqalari o'zaro qo'shib o'sgan ?  
A) bo'yin B) ko'krak C) bel, dumg'aza, dum D) bo'yin, ko'krak
20. Qushdagi qanotlar kamari necha juft suyaklar va qaysi suyaklardan tashkil topgan ?  
A) uch juft: ko'krak tirgak, o'mrov, yelka  
B) uch juft: ko'krak tirgak, kurak, o'mrov  
C) ikki juft: ko'krak tirgak, kurak  
D) ikki juft: kurak, o'mrov
21. Qushning orqa oyoq kamari umurtqa pog'onasining qaysi bo'limlari bilan qo'shib o'sadi ? 1) ko'krak 2) bel 3) bo'yin 4) dumg'aza 5) dum umurtqalarining barchasi 6) 2 va 3 dum umurtqasi 7) 1 dum umurtqasi 8) ko'krak umurtqasining oxirgi qismi  
A) 1,2,3 B) 3,4,5 C) 6,8,7 D) 2,4,7
22. Qush uchganda, eng ko'p og'irlik qaysi suyakka tushadi ?  
A) panja B) to'sh C) o'mrov D) to'sh toji
23. Qushlarning oyoq skeleti qaysi suyaklardan iborat ?  
1) son 2) boldir 3) bilak 4) tirsak 5) ilik 6) barmoq 7) chanoq  
8) yelka 9) tovon  
A) 1,2,5,6 B) 1,2,3,6 C) 1,3,4,9 D) 1,7,5,6
24. Qushlarda o'mrov suyaklarining o'ziga xosligi nimadan iborat ?  
A) uzun  
B) kalta va yo'g'on  
C) yuqori uchlari qo'shib o'sgan  
D) pastki uchlari qo'shib o'sib, ayri hosil qilgan
25. Qushlarning panja suyagining mustahkam bo'lishini sababi ?  
1) barmoqlar sonining kamayishi 2) qo'nayotganda zarbani yumshatadi  
3) havo bilan to'lganligi 4) mayda suyaklarning qo'shilishi  
A) 1,2. B) 2,4. C) 1,3. D) 1,4.
26. Qush skeletining qaysi qismlari uch juft suyakdan tashkil topgan ?

1) dumg`aza 2) orqa oyoqlari suyaklari 3) oldingi oyoq kamari 4) bosh skeleti 5) ko`krak tirgak suyagi 6) orqa oyoq kamari

A) 1,2 B) 5,4 C) 4,1 D) 3,6

27. Qushning yer yuzidan ko`tarilishga, yerga qo`nayotganda urilishini kamaytirishga qaysi suyak yordam beradi ?

A) qanot suyaklari B) kil suyagi C) son suyagi D) ilik suyagi

28. Ilik suyagi faqat qushlar uchun xos bo`lib, u .... hosil bo`lgan.

A) tovon suyagining o`zgarishidan

B) beshinchi barmoq suyagining o`zgarishidan

C) kichik boldir suyagining o`garishidan

D) bir necha mayda suyakning birikishidan

29. Qushlarning qaysi suyaklari o`zaro birikib yagona dumg`aza suyagini hosil qiladi?

A) bel, dumg`aza, o`mrov

B) dumg`aza, dum, toj

C) ko`krak, bel, dumg`aza

D) bel, dumg`aza, dum

30. Qushlarning chanoq suyaklari umurtqa pog`onasining qaysi qismlari bilan harakatsiz birikkan ? 1) bo`yin 2) ko`krak 3) bel 4) dumg`aza 5) barcha dum umurtqalari 6) oldingi dum umurtqalari

A) 3,4,6. B) 1,3,5. C) 2,4,6. D) 1,2,5.

31. Qushlarning uchishga moslashganligi bilan bog`liq bo`lgan xususiyatlarni aniqlang.

a) naysimon suyaklari havo bilan to`lgan b) tishlari yo`q c) jag`lari muguzli

tumshuqqa aylangan d) ko`krak-toj suyagi rivojlangan e) bel, dumg`aza, dum

suyaklari o`zaro harakatsiz birikkan f) issiqqonli bo`lishi j) yuragi 4 kamerali

k) o`pkada havo pufakcha (xalta)lari hosil bo`lgan

A) a, b, c, d, e, k

B) a, b, c, d, j, k

C) d, e, f, j, k

D) a, b, c, d, e, f, j, k

32. Qushlarning uch juft chanoq suyagi qaysi suyaklar bilan qanday birikadi ?

A) bel, dumg`aza va oldingi dum umurtqalari bilan, harakatsiz

B) bel, dumg`aza umurtqalari bilan, harakatsiz

C) bel, dumg`aza va oldingi dum umurtqalari bilan, harakatli

D) dumg`aza suyagi bilan, harakatsiz

33. Qushlardagi ko`krak muskullarining asosiy vazifasini ko`rsating.

A) qanotlarni ko`tarish

B) qanotlarni tushirish

C) ko`krak qafasini kengaytirish

D) ko`krak qafasini toraytirish

34. Qushlarning ko`krak muskullarning bir uchi (a) qaysi suyakka, ikkinchi uchi (b) qaysi suyakka birikadi ?

A) a-yelka, b-ko`krak toj

B) a-panja, b-tirsak

C) a-ko`krak, b-tirsak

D) a-bilak, b-tirsak

35. Qushlarning qanotlarini tushirishga yordam beruvchi muskullar birikkan suyak qaysi ?

A) yelka, o`mrov

B) to`sh, bilak

C) to`sh, yelka

D) ko`krak tirgak

36. Qushlarning qanotlarini ko`tarishda bevosita ishtirok etuvchi muskullarni belgilang.
- A) ko`krak muskullari                      B) qovurg`a muskullari  
C) oyoq muskullari                          D) o`mrov muskullari
37. Qushlar shoxga qo`nganda, barmoqlari siqilib, shoxni mahkam ushlab turishi nimaga bog`liq ?
- A) oyoq muskullarining qisqarishiga  
B) barmoq muskullarining qisqarishiga  
C) oyoqdagi paylarning tortilishiga  
D) katta ko`krak muskullarining tortilishiga
38. Qushlarning qaysi muskul(lar)i barcha muskullar massasiga teng keladi ?
- A) o`mrov    B) ko`krak    C) son    D) yelka va son
39. Qushlardagi o`mrov muskullarining qisqarishi tufayli ... .
- A) qanotlar tushadi                              B) qanotlar ko`tariladi  
C) ko`krak qafasi kengayadi                      D) ko`krak qafasi torayadi
40. Qushlarning og`iz bo`shlig`ida qaysi organlar joylashgan ?
- A) tish    B) til    C) so`lak bezlari    D) tish, so`lak bezlari
41. Nima uchun qushlar tez- tez oziqlanadi va hayotining asosiy qismini oziq axtarish bilan o`tkazadi ?
- A) tuxum qo`yish, jo`ja ochish uchun  
B) tana haroratini saqlash, uchishga energiya hosil qilish uchun  
C) uchish uchun energiya to`plash, tuxum qo`yish uchun  
D) tuxumida zaxira moddani ko`paytirish uchun
42. Qushlarning ichagi qaysi a`zoga ochiladi ?
- A) anal teshigi    B) kloaka    C) to`g`ri ichak    D) siydik yo`li
43. Ikki bo`lmali oshqozonga ega bo`lgan hayvonlarni ko`rsating.
- 1) eshakqurt    2) biy    3) falanga    4) langust    5) tuvaloq    6) kaptar
- A) 1, 2, 3    B) 1,4,5,6    C) 2, 3, 4, 6    D) 5, 6
44. Qushlarda havo xaltachalari qayrda joylashgan ?
- A) ichki organlar orasidagi bo`sh joylarda    B) o`pkada  
C) ikkala o`pka orasida                              D) qorin bo`shlig`ida
45. Qushlarda havo xaltachalari, nafas olishdan tashqari, yana qanday vazifani bajaradi ?
- A) qon aylanishini yaxshilab turadi  
B) tana haroratining yuqori bo`lishini ta`minlaydi  
C) buyrak faoliyatini tezlashtiradi  
D) tanasini qizib ketishdan saqlab, sovitib turadi
46. To`rt kamerali yurakka ega bo`lgan hayvonni ko`rsating.
- A) baqa    B) kaltakesak    C) qorayaloq    D) gekkon
47. Uchayotgan kaptarning yuragi minutiga necha marta qisqaradi ?
- A) 150 marta    B) 250 marta    C) 300 marta    D) 550 marta
48. Kaptarning yurak tuzilishini aniqlang.
- A) bo`lmacha, qorincha

- B) o`ng, chap bo`lmacha, qorincha  
 C) o`ng, chap bo`lmacha, o`ng, chap qorincha
49. Qushlarning qon aylanish sistemasiga xos xususiyatlarni aniqlang ?  
 1) to`rt kamerali 2) uch kamerali 3) yurakdan chap qorinchasidan aorta chiqadi  
 4) yurakning o`ng bo`lmachasidan o`pka arteriyasi chiqadi 5) yurakning o`ng qorinchasidan o`pka arteriyasi chiqadi 6) yurakdan chap aorta chiqadi  
 A) 1,3,5 B) 1,4,5 C) 1,4,6 D) 5,6
50. Qushlar tinch holatda (I) va uchganida (II) necha marta nafas oladi va yuragi qisqaradi ? a) 26 b) 400 c) 165 d) 550  
 A) I- 26, 400; II-165,550 B) I-26, 165; II- 400, 550  
 C) I-165,26; II- 550, 400 D) I- 400,165; II- 26, 550
51. Qushlarning uchgan paytidagi nafas olish tezligi tinch holatdagi nafas olish tezligidan necha marta ortiq ?  
 A) 10 B) 5 C) 15 D) 25
52. Qushlarning murakkab xatti-harakatlari bosh miyaning qaysi qismiga bog`liqligini aniqlang.  
 A) miyacha B) uzunchoq miya C) oraliq D) oldingi yarimsharlar
53. Qushlar bosh miyasining qaysi qismida bo`rtmalar ko`p bo`ladi ?  
 A) o`rta B) uzunchoq C) miyacha D) oraliq
54. Qaysi qushda shartli reflekslar tez va oson hosil bo`ladi ?  
 A) qorayaloqda B) qizilishtonda C) kaklikda D) tuvaloqda
55. Qushlarning sezgi organlaridan qaysi biri sust rivojlangan ?  
 A) eshitish B) ko`rish C) hid bilish D) barchasi
56. Qaysi qushlar ayrim so`zlarni takrorlashi mumkin ?  
 1) chittak 2) qarg`a 3) chug`urchuq 4) mayna 5) kaptar 6) tovus 7) to`ti  
 A) 1,3,7 B) 2,6,7 C) 2,4,7 D) 3,5,7
57. Qushlarning ko`payish jarayoni davrini to`g`ri ketma-ketligida joylashtirib ko`rsating ?  
 1) tuxum bosishi 2) in qurish 3) juft hosil qilish 4) bola boqish 5) bola ochish  
 A) 1,4,5,3,2 B) 3,2,1,5,4 C) 2,3,1,4,5 D) 3,2,5,1,4
58. Qushlarning jinsiy bezlari qayerga ochiladi ?  
 A) orqa chiqaruv teshigiga B) maxsus teshigi bor  
 C) ayirish sistemasi teshigiga D) kloakaga
59. Qaysi qushlar jufti uzoq yillar davomida saqlanadi ?  
 A) qur, karqur B) qarqara, qur  
 C) laylak, qarqara D) musicha, qur
60. Qaysi qushlar kech kuzda uchib keta boshlaydi ?  
 A) qaldirg`och, bulbul, zarg`aldoq B) laylak, zarg`aldoq, o`rdak, g`oz  
 C) laylak zarg`aldoq, oqqush D) oqqush, o`rdak, g`oz
61. Qaysi qushlar o`troq qushlar guruhiga kiradi?  
 A) zog`cha, olaqarg`a B) oqqush, turna  
 C) chittak, chumchuq D) turna, laylak
62. Qaysi qushlarning jo`jasi zaif bo`lib, tanasi yalang`och holda tuxumdan

chiqadi ?

- A) suv qushlari                      B) yirtqich qushlar  
C) tovuqsimonlar                    D) pingvin va tuyaqushlar

63. Qushlarning axlati qaysi moddalarga boy bo'lganidan qimmatli o'git hisoblanadi ?

- A) kaliy, azot    B) kaliy, natriy    C) azot, fosfor                    D) kaliy, fosfor

64. Murakkab uya quradigan qushlar qaysilar ?

- 1) ko'rgalak 2) vahmaqush 3) g'oz 4) bedana 5) qizilto'sh 6) o'rdak  
7) qaldirg'och 8) qirg'ovul

- A) 1,2,3,4                    B) 5,6,7,8                    C) 1,2,5,7                    D) 3,4,6,8

65. Qaysi qushlar daraxt kovagiga (a), yerga(b) uya quradi ?

- 1) chittak 2) o'rdak 3) turna 4) go'ngqarg'a 5) kaptar

- A) a-1,2, b-3    B) a-3,4, b-1    C) a-1, b-2,3                    D) a-2,5, b-1

66. Qush tuxumining tuzilishi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang ?

- 1) po'chog'i 2) po'choqosti pardasi 3) havo kamerasi 4) oqsil 5) lipid qavat  
6) oqsil ipcha 7) sariqlik pardasi 8) embrion 9) sariqlik 10) embrion diski

- A) 1,2,3,4,6,7,8                    B) 1,2,3,7,8,9,10  
C) 1,2,3,4,5,7,10                    D) 1,2,3,4,6,7,9,10

67. Uya qurmaydigan qushlarni aniqlang.

- A) o'rdak, kakku                    B) kayra, kakku  
C) kakku, qur                    D) bulduruq, kayra

68. Jish bola ochadigan yoki uya quradigan qushlar guruhini aniqlang.

- 1) burgut 2) o'rdak 3) qaldirg'och 4) g'oz 5) karqur 6) chil  
7) qizilishton 8) tasqara 9) qur

- A) 1,3,7,8                    B) 1,2,7,8                    C) 2,4,5,9                    D) 6,7,8,9

69. Qushlarning guruhini aniqlang.

- 1) ko'chmanchi 2) uchib o'tuvchi 3) o'troq 4) uchib keluvchi  
a) kaklik b) zag'cha s) turna d) bulbul

- A) 1-b, 2-s, 3-a, 4-d                    B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-s  
C) 1-a, 2-s, 3-b, 4-d                    D) 1-s, 2-b, 3-d, 4-b

70. Go'ngqarg'a, zog'cha, qorayaloq qaysi qushlar guruhiga mansub ?

- A) o'troq                    B) ko'chmanchi  
C) uchib o'tuvchi                    D) uchib ketuvchi

71. Uchib ketuvchi qushlarni belgilang.

- A) kaklik, zog'cha, o'rdak                    B) bulbul, zarg'aldoq, qorayaloq  
C) zarg'aldoq, laylak, qaldirg'och                    D) turna, so'fito'rg'ay, kaklik

72. Qushlardan o'troq (a) va ko'chib yuruvchi (b) qushlarni ko'rsating.

- 1) qorayaloq 2) mayna 3) kaklik 4) zog'cha 5) musicha 6) chittak  
A) a-2, 3, 5, 6; b-1, 4                    B) a-1, 2, 3; b-4, 5, 6  
C) a-2, 3, 6; b-1, 4,5                    D) a-1, 4; b-2, 3,5,6

73. O'troq qushlar guruhi berilgan qatorni aniqlang.

- 1) zag'cha 2) ko'k kaptar 3) olaqarg'a 4) mayna 5) qorayaloq 6) kaklik  
7) g'oz 8) o'rdak 9) bulbul

A) 1,3,5                      B) 2,4,6                      C) 7,8,9                      D) 1, 6,9

74. Uchib ketuvchi qushlar guruhini aniqlang.

1) bulbul 2) qorayaloq 3) zarg`aldoq 4) mayna 5) chittak 6) bedana  
7) qaldirg`och 8) qoraqush

A) 1,7,8                      B) 7,5,3                      C) 4,5,6                      D) 7,1,3

75. Qaysi qushlar joyi issiq, oziq yetarli bo`lishiga qaramasdan, erta uchib ketadi ?

A) o`rdak, g`oz              B) o`rdak, turna C) laylak, qarg`a              D) bulbul, zarg`aldoq

76. Qushlarning qaysi xususiyati uchib ketish va uchib kelishida katta ahamiyatga ega.

A) havoda chamalay olishi  
B) havoda uzoq ucha olishi  
C) muskullarining charchamasligi  
D) ko`rish qobiliyati yaxshi rivojlanganligi

77. Qushlarni halqalash maqsadi ?

A) qishlov joyi, uchib ketish yo`li, tarqalishi, qancha yil umr ko`rishini aniqlash uchun

B) oziqni aniqlash

C) ko`payish davrini aniqlash

D) tuxumlarini qayrga qo`yishini aniqlash.

78. Qushlarning bahorda o`z vatanlariga uchib kelishi nima bilan bog`liq ?

A) boshining o`zgarishi                      B) kunlarning qisqarishi

C) ko`payish instinkti                      D) ovqatning ko`payishi

79. Qushlarning qishlov joyiga uchib ketishi uchun nima signal bo`ladi ?

A) kunlarning uzayishi                      B) bosimning o`zgarishi

C) namlikning ortishi                      D) kunlarning qisqarishi

80. Qaysi qush tropik Afrikada qishlaydi ?

A) mayna    B) qorayaloq    C) bulbul    D) qaldirg`och

81. Qushlar bilan oziqlanmaydigan sudralib yuruvchilar (1) va qushlar (2)ning vakillarini belgilang.

1) qum bog`ma ilon 2) chipor ilon 3) ko`lvor ilon 4) qalqontumshuq 5) sariq ilon 6) ukki 7) kalxat 8) laylak

A) I-1,2,3,4,5    II-6,7,8

B) I-2,4,5    II-6,7,8

C) I-4,5    II-8

D) I-1,2,3    II-6,7

82. Qushlardan qaysi biri yerda yaxshi yura olmaydi, ko`proq uchadi ?

A) musicha              B) qarg`a              C) qaldirg`och              D) oqqush

83. Kaptar va qisqichbaqa uchun umumiy bo`lgan xususiyat ?

A) nerv sistemasining tuzilishi              B) oshqozoni ikki bo`limli

C) yurak tuzilishi                      D) ayirish sistemasining tuzilishi.

84. Kaptarga xos bo`lmagan xususiyatlarni aniqlang.

1) o`ljani havoda tutadi 2) jish ochuvchi 3) baland binolarning chordoqlarida uya quradi 4) kosasimon uya quradi 5) kaptar va zog`chalar bilan gala quradi 6) o`troq qush 7) ko`chmanchi qush

A) 2,3,4,6      B) 1,5,7      C) 2,3,7      D) 1,4,5,6

85. Chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi o'troq (a) ko'chmanchi (b) va uchib ketuvchi (c) qushlarni juftlang.

1) qaldirg'och 2) go'ngqarg'a 3) mayna 4) bulbul 5) zog'cha 6) musicha  
7) chumchuq 8) chittak 9) qorayaloq

A) a-3,7,8, b-2,5,9, c-1,4      B) a-1,3,4, b-2,5,9, c-6,7,8

C) a-2,5,9, b-3,6,7,8, c-1,4      D) a-2,3,4, b-1,5,8, c-6,7,9

86. Musichaning qirg'ovulga o'xshashi(a) va farqi(b) ni aniqlang ?

1) o'troq qush 2) ko'chmanchi qush 3) jish bola ochuvchi 4) jo'ja ochuvchi

A) a-2, b-3    B) a-1, b-3    C) a-1, b-4    D) a-2, b-4

87. Keltirilgan javoblarning qaysi biri eng yirik chumchuqsimonlarga xos ?

A) jo'ja ochuvchi va o'troq qushlar

B) jish ochuvchi va ko'chmanchi qushlar

C) jish ochuvchi va uchib ketuvchi

D) jo'ja ochuvchi va uchib ketuvchi

88. Go'ng qarg'aning chittakka o'xshashi (a) va farqi (b) ni aniqlang ?

1) chumchuqsimonlar turkumiga mansub 2) kosasimon uya quradi

3) ko'chmanchi qush 4) jufti bir mavsum saqlanadi 5) zog'chalar bilan qishda gala hosil qiladi

A) a-1,4, b-2,3,5    B) a-1,2,3, b-4,5    C) a-2,3,5, b-1,4    D) a-2,5, b-1,3,4

89. Chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi qushlar guruhini aniqlang.

1) chug'urchuq 2) chil 3) hakka 4) tuvaloq 5) qizilishton 6) chittak  
7) miqqiy

A) 1,3,6      B) 2,4,6      C) 1,7,4      D) 2,5,7

90. Qaysi turkum vakillari xilma-xilligi bilan barcha qushlar turining yarmini o'z ichiga oladi ?

A) chumchuqsimonlar turkumi    B) tovuqsimonlar turkumi

C) kaptarsimonlar turkumi      D) cho'l qushlari turkumi

91. Chumchuqsimonlar turkumining erkak qushlari qaysi xususiyatlari bilan

ajralib turadi ? 1) yirikligi 2) maydaligi 3) rangdorligi 4) boshida toj

patlarining bo'lishi 5) bo'ynining uzunligi 6) ovozining o'tkirligi

A) 1, 3, 4, 6    B) 2, 3, 4, 6    C) 1, 3, 4, 5    D) 1,2, 3, 4, 5, 6

92. Qaysi qushning bitta oilasi yoz davomida 1 mln. hasharotni qiradi ?

A) qaldirg'och    B) to'rg'ay    C) zarg'aldoq    D) chittak

93. Qaysi qushning tuxumdan chiqqan jo'jasining quloq teshigi yopiq bo'ladi?

A) g'oz    B) pingvin    C) qarg'a    D) o'rdak

94. Quyidagi qushlarning qaysi biri o'ljasini havoda tutadi, uchib ketayotib suv ichadi ?

A) qaldirg'och    B) turna    C) ko'k g'oz    D) churrak

95. Tanasining orqasi ko'kimtir - qora, qorni tomoni oq, peshona va bo'yni qizg'ish - qo'ng'ir. Bu belgilar qaysi qush uchun xos.

A) hakka    B) zag'cha    C) qaldirg'och    D) chumchuq





panjasimon 7) tanasining uzunligi 1,5metrga yetadi 8) qanotlarini yozganida 3 metrgacha yetadi

A) 2,5,6,7,8 B)1,3,4 C)1,2,3,5,7,8 D) 4,6,8

120. Yirtqich qush- tasqaraga xos xususiyatlarni aniqlang.

1) hayvonlar murdasi bilan oziqlanadi 2) tumshug`i kuchli va qayrilgan  
3) havoda uzoq vaqt qanot qoqmasdan uchadi 4) tirik hayvonlar bilan oziqlanadi 5) havoda baland uchadi 6) tirik va o`laksalar bilan oziqlanadi  
7) dumi ayri

A) 1,2,3 B) 2,3,6 C) 3,4,7 D) 1,5,7

121. Quyidagi xarakterli belgilarning qaysi biri tasqara uchun tegishli ?

1) baqalar bilan oziqlanadi 2) hayvonlarning murdasi bilan oziqlanadi 3) tirnoqlari kuchli rivojlangan 4) tirik hayvonlarga hujum qila olmaydi 5) yirik hayvonlarga hujum qiladi 6) tirnoqlari kuchiz rivojlangan 7) boshining ustida quloqqa o`xshagan ikki to`p pati bor 8) yerda beso`naqay qadam tashlaydi.

A) 1,3,7,8 B) 2,4,6,8 C) 3,4,7,8 D) 2,3,4,7

122. Qaysi qush tanasining uzundigi 1,5 m ga, qanotlarini yozganda kengligi 3 metrga yetadi ?

A) tasqara B) miqqiy C) ukki D) kalxat

123. Qaysi qush Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda qishlaydi ?

A) tasqara B) kalxat C) bulbul D) ukki

124. Tirnoqlari kuchsiz rivojlangan, lekin tumshug'i o'tkir, qayrilgan qushni belgilang.

A) burgut B) kalxat C) ukki D) tasqara

125. Kalxat qayerda qishlaydi ?

A) Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda

B) Shimoliy Amerikada

C) Hindomalayda

D) Hindomalay va Janubiy Osiyoda

126. Qaysi qushni uchganida uzun qanotlaridagi oqish patlarni panjasimon yozganligiga qarab bilish mumkin?

A) tasqara B) kalxat C) burgut D) qirg'iy

127. Qaysi qushning yuzi yuraksimon tuzihshga ega ?

A) tasqara B) yapaloqqush C) jo'rchi D) chil

128. Tasqaraga xos bo`lmagan xususiyatlarni belgilang ?

1) hasharot, baqa, kemiruvchilar va boshqa qushlar bilan oziqlanadi 2) faqat o`laksalar bilan oziqlanadi 3) tirnoqlari kuchli rivojlangan 4) yerda erkin harakatlanadi 5) tumshug`i kuchli rivojlangan 6) uchganida qanotidagi patlari patsimon yoyiladi 7) tanasining uzunligi 1, 5 metrga yetadi 8) qanotlarini yozganida 3 metrgacha yetadi

A) 2,5,6,7,8 B) 1,3,4 C) 1,2,3,5,7,8 D) 4,6,8

129. Kalxatga xos bo`lmagan xususiyat qaysi ?

A) havoda baland uchib o`lja qidiradi

B) faqat o`laskalar bilan oziqlanadi

C) Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda qishlaydi

D) daraxtning shoxida in quradi

130. Qaysi qushlarda pat qoplami govak va yumshoq bo'lganligi uchun uning uchganida ovoz chiqmaydi ?

A) yapaloqqush B) qaldirg'och C) tasqara D) burgut

131. Qaysi qushda boshining ustida quloqqa o'xshash ikki to'p pati dikkayib turadi?

A) yapaloqqush B) ukki C) boyo'g'li D) boyqush

132. Qaysi qushlar kemiruvchilarning vakillari bilan oziqlanadi ?

1) laylak 2) kalxat 3) boyog'li 4) tuyaqush 5) tuvaloq 6) ukki  
7) chug'urchiq

A) 2,3,5,6,7 B) 2,4,5,6 C) 2,3,4,5 D) 1,2,3,5,6

133. Yapaloqqushlar turkumiga kiruvchi qushlarni belgilang.

A) ukki, oqqush, mayna B) yapaloqqush, qizilishton, chil

C) boyo'g'li, ukki, yapaloqqush D) mayna, o'rdak, oqqush

134. Yapaloqqushlar turkumi vakillariga tegishli bo'lgan belgilarni ko'rsating.

1) barmog'i 4 ta bo'lib, 2 tasi oldinga, 2 tasi orqaga qaragan 2) shovqinsiz uchadi, juda yaxshi eshitadi 3) ko'zlari keng ochiladigan ko'z qorachiqlariga ega 4) oyoq va bo'yinlari uzun 5) havoda baland uchib, o'lja qidiradi 6) tirnoqlari kuchsiz rivojlangan 7) tumshuqlari qayrilgan, barmoqlarida o'tkir tirnoqlari bo'ladi 8) meva va donlarni eb, zarar etkazadi 9) uyasining balandligi 2 metrga etadi 10) tungi qush hisoblanadi.

A) 2,3,7,10 B) 1,2,5,6 C) 1,3,7,10 D) 3,4,7,10

135. Sovuq (1) va issiq (2) qonli hayvonlarni farqlang.

a) sterlyad b) ko'rgalak c) qizilto'sh d) timsoh e) salamandra

A) 1 b c; 2a, d, e B) 1 a, d, c; 2 b, e C) 1 a d; 2 b, c, e D) 1a, d, e; 2 b, c

136. Qaysi qushning uyasiga to'shaydigan momiq pati yengil sanoatda foydalanish uchun yig'ib olinadi ?

A) yovvoyi o'rdakning B) suqsunning

C) dengiz o'rdagi- gaaganing D) laylakning

137. Qizilo'ngachning kengayib jig'ildonni hosil bo'lishi qaysi organizmlarga xos ?

1) oq planariya 2) triton 3) jigar qyrti 4) kaptar 5) baqa 6) yomg'ir chuvalchangi 7) qizilto'sh 8) nereida

A) 1,2,3,8 B) 1,3,4,6 C) 4,6,7,8 D) 2,5,7

138. Sirdaryo atrofida uchrovchi arixo'r qush qaysi oilaga mansubligini belgilang.

A) qarchig'aysimonlar B) chumchuqsimonlar

C) tasqarasimonlar D) yapaloqqushlar

139. O'simliklarni changlatadigan qushni belgilang.

A) mayna B) tasqara C) bulbul D) kolibri

140. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan qushlarni aniqlang.

A) oq laylak, tuvaloq, lochin B) oq laylak, bedana, qaldirg'och

- C) tuvaloq, qarg`a, lochin D) qaldirg`och, tuvaloq, lochin
141. Tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi qushlarni belgilang.  
A) tuvaloq, qirg'ovul B) chug'urchuq, qaldirg'och  
C) qurlar ,qarqurlar D) mayna, qirg'ovul
142. Qishlash uchun shimoliy hududlardan o'lkamizga uchib keladigan qushni aniqlang.  
A) so'fito'rg'ay B) mayna C) qaldirg'och D) go'ngqarg'a
143. Quyidagi qaysi qushning tuxumidan jish bola chiqmaydi ?  
A) laylak B) karqur C) qarg'a D) chumchuq
144. Xonakilashtirilgan parrandalar orasida eng yirigi qaysi ?  
A) g'ozlar B) o'rdaklar C) plimutrok tovuq zoti D) kurka
145. Go'shti mazali bo'lgani uchun va sport maqsadida ovlanadigan qushlarni belgilang.  
A) qur, kaklik B) bedana, qarg'a C) bedana, tuvaloq D) turna, g'oz
146. Hozirgi tovuqlar qachon qayerda xonakilashtirila boshlangan ?  
A) Yaponiyada 1500 yil ilgari B) Xitoyda 4000 yil ilgari  
C) Hindistonda 4500 yil ilgari D) Birmada 3000 yil ilgari
147. Quyidagi nomlari ko`rsatilgan tovuq zotlari qanday maqsadlarda boqiladi ?  
1) rus oq tovug`i 2) lekgorn zot 3) zagorsk 4) kornuel 5) nyugempshir 6) pervomaysk 7) plimutrok a) tuxum, go`sht b) tuxum olish uchun c) go`shti uchun  
A) 1b, 2b, 3a, 4c, 5a, 6b, 7a B) 1b, 2b, 3a, 4c, 5c, 6a, 7c  
C) 1b, 2b, 3a, 4c, 5a, 6a, 7c D) 1b,2a,3c,4a,5b,6a,7c
148. Rus oq tovug`i va lekgorn zotli tovuqlar bir yilda nechtagacha tuxum beradi, bir dona tuxumining og`irligi qancha bo`lishi mumkin ?  
A) 200, 300 ta, 50-65 gr, B) 150,200 ta, 40-45 gr,  
C) 200,220 ta, 70-80 gr, D) 150, 180 dona, 70-75 gr,
149. Faqat tuxum olish uchun ko`paytiriladigan tovuq zotini belgilang.  
A) plimutrok B) zagorsk C) lekgorn D) pervomaysk
150. Tuxum – go`sht maqsadida boqiladigan tovuq zotlari berilgan qatorni toping.1) rus oq tovug`i 2) nyugempshir 3) kornuel 4) pervomayskiy 5) plimutrok 6) zagorsk 7) lekgorn  
A) 1,6,3 B) 3,5,6 C) 2,4,6 D) 1,5,7
151. Go`shti uchun boqiladigan tovuq zotlari berilgan qatorni belgilang.  
A) rus oq tovug`i, lekgorn B) zagorsk, nyugempshir  
C) pervomaysk, lekgorn D) kornuel, plimutrok
152. Tuxum-go'sht yo'nalishidagi tovuq zotlarini ko'rsating.  
1) Lekgorn 2) Pervomaysk 3) Zagorsk 4) Kornuel  
A) 1,2 B) 2,3 C) 3,4 D) 2,4
153. Qaysi tovuq zoti tullash davrida tuxum qilmaydi ?  
A) Pekin B) Zagorsk C) Ukraina D) Moskva
- 154 .Qaysi tovuq zoti 5-6 oyda tuxumga kiradi ?  
A) Lekgorn B) Moskva C) Pekin D) Ukraina

155. Barmoqlari orasida parda tortilmagan hayvonlar ?  
 1) laylak 2) yexidna 3) pingvin 4) churrak 5) gaaga 6) suqsun  
 7) o`rdakburun 8) gaviala 9) jayra  
 A) 1,2,3,9 B) 4,6,7,9 C) 4,5,6,8 D) 1,3,5,7,8,9
156. Qashqaldoq qaysi turkum va oilaga mansub ?  
 A) yirtqichlar, mushuksimonlar B) kemiruvchilar, yumronqoziqlar  
 C) yirtqichlar, suvsarsimonlar D) yirtqichlar, tulkisimonlar
157. Faqat Janubiy Yarim sharda tarqalgan qush ?  
 A) churrak B) suqsun C) pingvin D) g`oz
158. Shimoliy yarim sharda uchramaydigan qushni belgilang ?  
 A) churrak B) suqsun C) pingvin D) g`oz
159. Faqat jo`ja olish uchun boqiladigan, ikki oylik jo`jasining og`irligi 1,6 kg keladigan tovuq zotlari qaysi qatorda berilgan ?  
 A) lekgorn B) pervomaysk, Zagorsk  
 C) korniyel, plimutrok D) Zagorsk, lekgorn
160. Odamlar yovvoyi o`rdakni qachon xonakilashtirgan ?  
 A) bundan 300 yil oldin B) bundan 200 yil ilgari  
 C) bundan 2000 yil ilgari D) bundan 3000 yil ilgari
161. Xonaki o`rdakning qanday zotlari ko`paytiriladi ?  
 A) churrak B) suqsun  
 C) moskva, kuban D) pekin, moskva, ukraina
162. Uchish qobiliyatini yo`qotgan qushlar nomi qaysi qatorda keltirilgan ?  
 A) pingvinlar, g`oz B) tuyaqush, o`rdak  
 C) xonaki g`ozlar, jo`rchi D) xonaki g`oz, tuyaqush, pingvin
163. Xonakilashtirilgan, vazni 16 kg gacha bo`ladigan qush hisoblanmish kurkaning vatani qayer ?  
 A) Yevropa B) Avstraliya C) Amerika D) Hindiston
164. Kurka dastlab qayerda xonakilashtirilgan ?  
 A) Amerikada B) Indoneziyada C) Afrikada D) Hindistonda
165. Parrandachilik fabrikalarida qanday sexlar bo`ladi ?  
 A) tuxum yetishtiradigan  
 B) go`sht yetishtiradigan  
 C) nasl beruvchi, tuxum qo`yuvchi, jo`ja ochirish, chiqindilarga ishlov berish sexlari  
 D) barcha javoblar to`g`ri
166. Qaysi yovvoyi qushlar sanoat maqsadida va sport usulida ovlanadi ?  
 1) oqqush 2) kulrang turna 3) g`oz 4) kaklik 5) qarg`a 6) zarg`aldoq  
 7) qirg`ovul 8) kaptar 9) o`rdak  
 A) 1,2,8,6 B) 2,3,7,1 C) 3,7,9,5 D) 9,7,3,4
167. Quyidagi ta`riflarning qaysi biri gaaga qushlari uchun xos ?  
 A) yirik dengiz o`rdagi B) yirik o`rmon qushi  
 C) yirik cho`l qushi D) oddiy cho`l qushi
168. Keltirilgan qushlarni qishlaydigan joyi bilan juftlab ko`rsating.

1) Yevropa laylagi 2) oq laylak 3) bulbul 4) O`rata Osiyo laylagi 5) qaldirg`och a) Janubi-sharqiy tropik Afrika b) Janubiy Osiyo c) Markaziy Osiyo d) Markaziy va Janubiy Afrika e) tropik Afrika f) Shimoliy Hindiston n) Afrika va Hindiston

A) 1a, 2b, 3cd, 4e, 5fn

B) 1a, 2bf, 3c, 4de, 5n

C) 1a, 2bcd, 3e, 4f, 5n

D) 1a,b , 2acd, 3e, 4f, 5n

169. Ikki oylik jo`jalari 1,6 kg (a), o`zini vazni 2,6 kg (b) va undan ortiq keladigan zotlar ?

1) Nyugemshpir 2) lekgorn 3) Pervomayskiy 4) Plimutrok 5) Moskva 6) Ukraina 7) Kornuel 8) Pekin

A) a-1,2 b-3,5,6

B) a-4,7 b-5,6,8

C) a-1,4,7 b-2,3,8

D) a-5,6,8 b-4,7

170. Qushlar, mo`ynali hayvonlar, baliqlarni ovlash mumkinligi yoki mumkin emasligi ... qarab belgilanadi.

A) yosh individlarning katta yoshdagi individlarga nisbat ko`rsatkichlariga

B) qari individlarning yosh individlarga nisbatiga

C) tug`ilish va o`lish nisbati ko`rsatkichiga

D) areal kengligi nisbati ko`rsatkichiga

## 8.6. Sutmizuvchilar sinfi

1. Faqat sutemizuvchilarga xos belgilarni aniqlang.

a) quloq suprasi rivojlangan b) bo'yinda 7 ta umurtqa bo'ladi c) gavdasi jun bilan qoplangan d) tishlari ixtisoslashgan e) diafragma rivojlangan f) ayirish organi bitta loviyasimon buyrakdan iborat j) qon aylanish doirasi bitta k) jun qoplami bir qavatdan iborat

A) a, b, c, f, k

B) d, e, f, j, k

C) a, b, c, d, e

D) a, b, c, d, e, f, j, k

2. It yurganda qayeriga tayanib yuradi ?

A) skeletiga B) oyoqlariga C) tovoniga D) barmoqlariga

3. Sutmizuvchilarda qaysi qovoq rivojlanmagan ?

A) pastki qovoq

B) uchinchi qovoq

C) ustki qovoq

D) qovoqlari yaxlit rivojlangan

4. Sutmizuvchilarning eshitish organi boshqa umurtqali hayvonlarning eshitish organidan qanday farqlanadi ?

A) kuchli rivojlangani bilan

B) faqat tashqi va o`rta quloqlarning mavjudligi

C) ichki quloqning taraqqiy etmagani D) tashqi quloq va quloq suprasi bo`lishi

5. Sutmizuvchilarning terisidagi qillar nima vazifani bajaradi ?

A) tana haroratini saqlash

B) terini himoya qilish

C) tuklar bilan terini himoya qiladi

D) tuyg`u

6. Issiq yoz vaqtida, yoki yugurganda it nega tez-tez nafas oladi ?

A) tanasiga nisbatan o`pkasi kichik

B) yurak muskullari kuchsiz

C) tana harorati ko`tarilib ketadi

D) itlarning terisida ter bezlari bo`lmaganligi sababli tez-tez nafas olib tana haroratini pasaytiradi

7. Sutemizuvchilar umurtqa pog`onasi necha bo`limdan iborat ?

A) 3 ta      B) 5 ta      C) 6 ta      D) 7 ta

8. Quyidagi hayvonlarda bo`yin umurtqalari nechta bo`ladi ?

1) jirafa 2) to`ng`iz 3) sichqon 4) it a) 5 b) 6 c) 7 d) 7,9 e) 11,18

A) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c

B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-b

C) 1-s, 2-s, 3-s, 4-s

D) 1-s, 2-d, 3-b, 4-d

9. Itning bo`yin, ko`krak, bel, dumg`aza, dum umurtqalar soni qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan ?

1) bo`yin 2) ko`krak 3) bel 4) dumg`aza 5) dum a) 3 b) 7 c) 12,15 d) 6

e) 3,4 j) 3,10

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e

B) 1-b, 2-c, 3-e, 4-d, 5-j

C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d, 5-e

D) 1-b, 2-c, 3-d, 4-e, 5-j

10. Itlarda qaysi suyak rivojlanmagan ?

A) ko`krak tirkak B) kil C) chanoq D) o`mrov

